

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI
“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”
KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Mavzu: Odil Yoqubov ijodida shaxs va jamiyat

Bajardi: 4 kurs “B” guruh talabasi

Arabova SH

Ilmiy rahbar: f.-m.f.n. Yodgorov G'.R.

NAVOIY-2015

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. ODIL YOQUBOV IJODIDA SHAXS VA JAMIYAT	
MUAMMOLARI	9
II BOB. “ADOLAT MANZILI” ROMANIDA IJODKOR YARATGAN	
OBRAZLARNING O‘ZIGA XOSLIGI VA BADIY TALQINI.....	26
XULOSA.....	48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	50

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Tarixda hech bir xalq yoki millat o'z ozodligini va mustaqilligini osonlik bilan qo'lga kiritmagan. Buni jahon tarixi, jumladan, yurtimiz tarixi ham isbotlaydi. Bizning ajdodlarimiz, otabobolarimiz qadim tariximiz davomida necha bor yovuz bosqinchilar hujumiga duch kelib, Vatanimiz ozodligi uchun kurash olib borganlar. Masalan, To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Tarobiy, Amir Temur singari mard bahodirlar sarkardalarimiz boshchiligida yovlarga qarshi qilingan jang-u jadallar so'ngi 130-yildan ortiqroq davom etgan istibdod davridagi ozodlik kurashchilari, jadid bobokalarimizning, xalqimizning jaholat va mustamlakachilik domidan xolos etish yo'lidagi ma'rifiy xarakatlari bu fikrlarning tasdig'idir.

Mustaqil yurtimiz zaminining shu jihatdan benihoya muqaddasligi haqida Prezidentimiz Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlab aytgan edi: "Butun umrini iymon va e'tiqod, vatanparvarlik, poklik va halollik, ilm va ma'rifat, adolat va diyonat yo'lida fido etgan zotlarning mo'tabarxoklari makon topgan zamingina muqaddasdir. Agar shunday insonlar bo'lmasa ular dahosining nafasi sezilib turmasa, har qanday zamin oddiy tuproq bo'lib qolaveradi".¹

Hammamiz yaxshi tushunamiz adabiyotda tarixiy haqiqatni tiklash bilan birga, xalqimiz adiblarimizdan bugungi kunimiz haqida, zamonamiz qahramonlari haqida yangi-yangi asarlar kutayotgani tabiiydir. Keyingi yillarda anashunday ruh bilan yo'g'rilgan bir qancha she'riy asarlar paydo bo'layotganini mamnuniyat bilan ta'kidlash joiz.

Ishonamizki, yozuvchi va dramaturglarimiz ham bugungi avlodlarning fidokorona mehnati, bunyodkorlik salohiyati, zamondoshlarimizning ma'naviy ruhiy dunyosi, hayotga kirib kelayotgan va hal qiluvchi kuchga

¹ Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurqamiz. T.; Asarlar, 7-jild, "O'zbekiston", 1999, 184-b.

aylanayotgan yoshlarimizning pok orzu –intilishlari o‘zining teran badiiy ifodasini topgan yangi- yangi asarlar bilan xalqimizni xushnud etadilar.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat safidan munosib va mustahkam o‘rin egallab borayotgan O‘zbekistonimizga, uning tarixan qisqa davrda qo‘lga kiritgan ulkan marralariga, el-yurtimizning ma‘naviy ildizlari, urfodat va an‘analariga, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek xarakteri, o‘zbek tabiatiga butun dunyoda qiziqish va hurmat tobora ortib bormoqda. Tabiiyki, uzoq- yaqindagi xorijiy do‘st-u birodarlarimiz jahon jamoatchiligi eng avvalo bizning zamonaviy adabiyotimiz san‘atiz orqali o‘zlarini qiziqtiradigan ana shunday savollarga javob topishni istaydi.

Agar biz O‘zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug‘ kelajagini ulug‘lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo‘lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Nega deganda, ulug‘ adib Cho‘lpon aytganidek, adabiyot yashasa –millat yashaydi.¹

Mavzuning o‘ganilish darajasi. Odil Yoqubov adabiyotga oshno bo‘lishida : qiyinchiliklar bilan o‘tgan bolalik, o‘smirlik yillari, umri davomida uchragan, uchratgan insonlar, turli-tuman taqdirilar, ularning dardlari, tashvishlari, o‘ylari, orzulari va armonlari ichida bo‘lish, xalq dardi bilan yashash sababchi bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Odil Yoqubov ijodi o‘zining dastlabki qadamlaridanoq adabiyotshunoslarning nazariga tushgan. Bugungi kungacha, yozuvchining eng so‘ngi asarlari yaratilguncha bo‘lgan oralig‘da uning hikoya, qissa, roman, dramalari tahlili va talqiniga bag‘ishlangan juda ko‘plab ilmiy maqolalar, risolalar tahlilga tortgan “Adolat manzili” romani va undagi qahramonlar talqiniga bag‘ishlangan ilmiy ishlarning o‘zi anchagina. Jumladan, U. Normatov, I. Yoqubov, U.Hamdam roman va uning

¹ Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat –yengilmas kuch. T.; “Ma‘naviyat”, 2008, 138-140-b.

personajlari haqida va u yaratilgan davr, ijtimoiy hayot haqida aytilgan fikrlari shular jumlasidandir. Yozuvchining ijodiga uning turli janrdagi asarlariga berilgan umumiy baho U. Normatov, Y. Solijonov, A. Nosirov , M. Xudoyberganov, M.Qo‘shjonov, O. Sharafiddinov, A. Rasulov kabilarning ilmiy maqolalarida o‘z haqqoniy bahosini topgan .

Bundan tashqari umumta’lim maktablarining 6-sinfida, hamda akademik litseylar uchun yaratilgan III kurs “Adabiyot” darsliklaridan, universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun yaratilgan, “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” darsliklaridan, U. Normatovning “Yangi o‘zbek adabiyoti” o‘quv qo‘llanmalaridan ham yozuvchi ijodiy faoliyati, nasrning hikoya, qissa, roman janrining yetuk ustasi, o‘zbek dramaturgiyasi va publitsistikasining betakror vakili sifatidagi faoliyati o‘z aksini topgan.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida Odil Yoqubovning o‘ziga xos o‘nini ko‘rsatish;

O‘zbek romanchiligi maktabi rivojida yozuvchi romanlarining o‘rnini ta’kidlash;

Yozuvchining zamonaviy romanlari va ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratish;

Odil Yoqubov ijodida “Adolat manzili” romanining o‘ziga xosligini ko‘rsatish;

“Adolat manzili” romanidagi davr vqeiligini shaxslar taqdiri bilan qiyoslab o‘rganish;

Asarda ijodkorning obraz tanlash va unga ma’lum g‘oya va maqsadlar yuklash mahoratini ochish;

Har bir qahramonni o‘ziga xosliklarini topishga, boshqa asar va obrazlardan farqlarini topish;

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishida Odil Yoqubov ijodining o‘zbek adabiyotida, barkamol avlodni vatanga muhabbat, adolatga ishonch ruhida tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati atroflicha o‘rganildi.

Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romani va asardagi obrazlar talqini yangicha tahlil qilindi va o‘ziga xosliklari ijodkorning boshqa asarlari bilan qiyoslab o‘rganildi.

Bitiruv malakaviy ishining materiali oliy o‘quv yurtlari umumta’lim maktablari, kollej va akademik litseylar uchun mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti, romanlar haqida beriladigan kurs ishlari, mustaqil ta’lim topshiriqlari yozishda yaxshi samara beradi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilarda nomoyon bo‘lgan:

Odil Yoqubovning “Adolat manzili” romani haqida yaratilgan ilmiy-tanqidiy maqolalarida atroflicha o‘rganilib, ularga o‘zimizning ham mulohazalarimizni bildirishga harakat qildik.

Roman qahramonlarini o‘zidan oldingi yozilgan asarlar bilan aqqoslab, bir- biriga o‘xshash va farqli tomonlarini yoritishga urindik.

Roman yozilgan davrni va asardagi obrazlar yashagan payt, u vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy, adabiy badiiy jarayonlar haqida batafsilroq to‘xtalishga harakat qildik .

Yozuvchi qalamga olgan davr siyosatining kamchiliklarini, mustamlaka tuzum oqibatlarini, millatimizga xos ijobiy va salbiy jihatlarga to‘xtalib o‘tdik.

Asarning xalq og‘zaki ijodi na’munalariga o‘xshashi va bunday deyilishining sabablari nimada ekaniga to‘xtalib o‘tdik. Uni ilmiy , ham asar tahlili jarayonida asoslab berishga harakat qildik.

Suyun burgut timsolidagi xalq ogʻzaki ijodi qahramonlari obraziga oʻxshash jihatlar va bu bosh qahramonning shunday mavzu, gʻoyqqa yoʻgʻrilgan asardagi obrazlardan nimasi bilan farqlanayotganini asoslab berishga , ijodkorning bu obrazni yaratishda erishgan oʻziga xosligini koʻrsatishga urindik.

Bu asarda yaratilgan absurd qahramon va bu abadiy turning oʻziga xosligi, keyingi yillardagi rivoji, ushbu oʻrganilayotgan asarda absurdning ilk naʼmunalari uchrashi haqida toʻxtalib, Veteran obrazining gʻoyaviy tugalligi haqida unimlir oq maʼlumot berishga harakat qildik.

Lochin, Oltinoy, Kumushbib, Salim obrazlarining oʻziga xosligi, ijodkorning bu qahramonlari mustaqilik ostonasida turgan yurtimizning gʻoyaviy, mafkuraviy yetuk, tarixiy va ilmiy bilimlari yetuk munosib voris ekaniga, bu qahramonlar adabiyotimizdagi oʻziga xos yangilik ekanini asoslashga urdik.

Romandagi Marjonoy, Darvesh duduq kabi ijobiy qahramonlarning milliy umuminsoniy goʻzal fazilatlarini ochib berishga harakat qildik.

Asardagi salbiy qahramonlarning, ayniqsa, (milliy) Mansur mesh, Mirjalolov kabilarni fojiasini ochib berishga urindik.

Asar syujeti haqida, syujetning qismlarga boʻlinishi, hamma ijodkorlarga xos umumiy jihatlardan qaysi biridan foydalanilganligi haqida maʼlumotlar berdik va uni ilmiy asoslashga harakat qildik.

Yozuvchi ijodidagi oʻziga xoslik, asarlardagi gʻoyaning mushtarakligi, ”Adolat manzili” romani obrazlari yangiligi xususida mulohaza yuritdik.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari .

- “Adolat manzili”
- “Oqqushlar oppoq qushlar”
- “Diyonat”
- “XX asr oʻzbek adabiyoti”

- “Ijodni anglash baxti”

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I bob. Odil Yoqubov ijodida shaxs va jamiyat muammolari

Har bir adabiyotning bosh xususiyati milliyligidir. Shuning uchun ham milliy adabiyot deymiz. Dunyoda esa minglab millatlar, elatlar bor. Birini ikkinchisi bilan adashtirmaysiz. Chunki biri ikkinchisidan nimasi bilandir farq qiladi. Mana shu “nimasi” bo‘lmagan, o‘zligi yo‘q millat uzoq yashay olmaydi, boshqasiga singib ketadi.¹

Milliy taraqqiyot, milliy istiqlol orzusini ro‘yobga chiqarmoqchi bo‘lgan ko‘plab ajdodlarimiz qatog‘on qilinganiga tarix guvoh. Taraqqiyparvar ziyolilarning asosiy qismini qatog‘on qilish milliy taraqqiyot va milliy uyg‘onish g‘oyalarini millat ongidan, uning keyingi avlodi ziyolilari ongidan butunlay o‘chirib tashlay olmadi. Zero xalq bor ekan, mustaqil milliy taraqqiyot orzusi hech qachon izzsiz o‘chib ketmaydi. Milliy taraqqiyot, milliy istiqlol g‘oyasining o‘ziga xos mohiyati ijtimoiy ongning qaysidir qatlamlarida saqlanib qolaveradi. Mazkur g‘oyalarni sun‘iy tarzda yaratib bo‘lmaganidek ularni zo‘ravonlik bilan millat va xalqdan butunlay ajratib olish ham mumkin emas.

Vatanimiz tarixida kommunistik mafkura davrida milliy taraqqiyot g‘oyasini yo‘q qilish uchun barcha munofiqliklar ishga solindi. Millat, vatan taraqqiyoti bilan bog‘liq biror masala, xoh u ijtimoiy- siyosiy bo‘lsin, xoh ma‘naviy, iqtisodiy bo‘lsin, kommunistik mafkura tazyiqidan xoli bo‘la olmas edi. Mafkuraviy tazyiq to‘la shakllangan davrda xalqqa xolis xizmat qilish, unga nisbatan farzandlik burchini unutmaslik, xiyonat qilmaslik, asriy qadryatlargasodiq bo‘lish ziyolilarimiz uchun asosiy imkoniyat chinakam shaxslik hamda insoniylikning mezoni bo‘lib qolgan edi.

Shunday murakkab davrda millat ziyolilarining eng ilg‘orlari xalqqa xizmat qilish, ertangi kunga umid, ishonchni so‘ndirmaslik maqsadida xalqqa xizmat qildi. Ular ilgari surgan go‘yalarning millie ongni o‘stirishga qaratilganini

¹ Qosimov B.O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. T.; “Fan va texnologiya”, 2008, 331-b.

mazkur davr adabiyotining eng yaxshi asarlarida, ayrim bilvosita niqoblangan shaklda kuzatamiz.

60-70-yillarda ziyolilar ijodida milliy qadr-qimmat, milliy o'zlik, ona tiliga va ajdodlarmadaniy merosiga ehtirom, millatga muhabbat, qadryatlarga egalik hissi, milliy tengsizlikka qarshi kurshuvchanlik, ma'naviy qashshoqlikdan uyg'onishga undash, qaramlik ko'rinishlarini inkor etish kabi muhim g'oyaviy qarashlar yanada yorqin ma'no kasb etib borganini kuzatamiz.

Mana shunday tengsizliklar, mute'liklar alangalangan bir avlodning karvonboshlaridan biri Odil Yoqubovdir. U o'zining faol ijtimoiy ishlari, jurnalistik vaijodiy faoliyati bilan respublikamizda hozirgi adabiy badiiy tafakkur rivojiga samarali ta'sir qildi.¹

Adabiyotning chinakam san'at mo'jizasi betakror xazina ekaniga har gal imon keltiradi kishi.

Dunyoda shunday mo'jizalar borki, ukarni biz qadimiyligi, qimmatini yoki chiroyi vag'aroyibligi uchun asraymiz, avaylaymiz.

O'ylab qarasak, yuqorida sanagan sifatlar ikkinchi darajali bo'lib ko'rinadi kishiga. Aslida bu hurmat bu e'zozimiz ostida tabiatning buyuk mo'jizasi bo'lmish insonga tahsinlar o'qiymiz. Inson mehnatini nechog'lik bunyodkor, ongli yaratiq ekaniga ishonch hosil qilamiz.

Agar biz imkoni bo'lganda insoniyat ardoqlab kelayotgan mo'jizalar qatoriga ming yillardan yuz yillardan beri o'z qimmatini ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan nodir adabiyotlarni qo'shar edikki, bularni o'qigan sari, umrimiz sarhisobida chiqarishimiz ma'lum bo'lgan hayot falsafasini oldindan uqqandek bo'lamiz shunday asarlar bor ekan adabiyot, badiiy adabiyot tirik, o'lmas, hamisha barhayot deging keladi.

¹ Munavvarova M. Milliy g'oyaning ma'naviy ildizlari. T.; "Ma'naviyat", 2011, 79-80-b.

Ustoz Ozod Sharafiddinov Odil Yoqubov va u kishining asarlari haqida quyidagi fikrlarni yozib qoldirgan.

Men cheksiz mamnuniyat bilan ta'kidlashim mumkinki, do'stim Odil Yoqubov ham o'z ijodi davomida bir qancha eskirmaydigan, vaqt- soati o'tganday ko'rinsada, kitobxonning koriga yaraydigan asarlar yaratish baxtiga miyassar bo'lgan adibdir.¹

Odil Yoqubov adabiyot maydoniga kirib kelganiga yarim asrdan oshdi. Tabiiyki, bu yillardagi ijod nog'ora karnaylar sadosi ostidagi g'olibona yurishdan iborat bo'lgani yo'q. Unda xatoliklar ham, pasayishlar ham bo'ldi, ba'zan esa asarlarida hukmron mafkura tazyiqida yo'l qo'yilgan nuqsonlar ham mavjud. Albatta, bunday nuqsonlarni pesh qilib to'ydan keyin nog'ora chalib, xinalar qo'yib Odilning nechog'lik "yomon" bo'lgani haqida ham yayrab gapirish mumkin. Lekin men baxil odam emasman –birovning kemtikligidan yayrab semirib yurish odatim yo'q, bundan tashqari o'zim farishta emasmanki boshqalarni chalg'itib yuraversam. Yo'q, men boshqa bir narsaga guviahman –Odil Yoqubov eng og'ir sho'ro yillarida ham xalq dardi bilan yashaganini, ona yurtining kelajagi va baxtini orzu qilganini imkon qadar shu yo'lda qalam tebratganining guvohiman.²

Odil Yoqubov "Muqaddas", "Bir feleton qissasi", "Qanot juft bo'ladi", "Matluba" qissalari, "Namangan tomonlarda", "Qishloqdagi fojia" sinagari publitsistik maqolalari, "Ulug'bek xazinasi", "Diyonat", "Oqqushlar oppoq qushlar", "Adolat manzili" romanlari keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortdi, qizg'in bahs – munozaralar markazida turdi; Odil Yoqubovning bu darajaga yetishishida undagi adabiyotga bo'lgan mehr va adib boshidan o'tgan voqealar, hayotiy tajribalari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Adibning xalqqa tanilishiga sabab bo'lgan asari 1961- yilda yozilgan "Muqaddas" qissasi bo'ldi. O'sha davr ijodkorlari bu asarni eslaganda barcha

¹ Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Qaydasan, Moriko? T.; "Sharq", 2004, 586-b.

² Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Qaydasan, Moriko?. T.; "Sharq", 2004, 592-b.

davrlarda va hatto ikki ijodkor suhbatida, nafaqat ijodkorlar, balki butun xalq ogʻziga tushgani, sevib oʻqilgani haqida maʼlumotlar beradilar “Muqaddas” yozuvchining bosh estetik, ahloqiy prinsiplarini shakllantiruvchi asar sifatida ham qimmatli: “Muqaddas” soʻzi nafaqat qissa qahramoni nomi bilangina bogʻliq boʻlmay, yozuvchi asarda zoʻr ehtirom bilan ilgari surgan insondagi eng aziz, muqaddas tuygʻular –vijdon, burch, diyonat, iymon, eʼtiqod, adolat goyasini ham oʻzida ifodalaydi. “Muqaddasdan” “Diyonat”, “Oqqushlar oppoq qushlar” va “Adolat manzili”ga qadar adibning eʼtiborga sazovor barcha asarlari xuddi shu muammo tevaragida aylanadi. Qisqasi diyonat, iymon- eʼtiqod, ijtimoiy adolat –yozuvchi ijodining bosh maʼnaviy muammosi, uning asosiy estetik prinsipi esa –haqiqatni aytish hayotni murakkabligi bilan koʻrsatishidir.

Maʼlumki, diyonat, iymon- eʼtiqod ishtimoiy adolat xuddi muhabbat kabi soʻz sanʼatining qadimiy va boqiy mavzu muammolaridan. Har bitta davr uni yangicha qoʻyadi, oʻzgacha mezonlar bilan baholashni taqozo etadi; qolaversa, har bitta adib unga oʻzicha yondashadi. Burch, diyonat, adolat muammosi ham xuddi muhabbat kabi adabiyotda birdan -bir maqsad emas. Burch, diyonat davrning katta haqiqatlarini ifodalashga, muhim ijtimoiy muammolarni qoʻzgʻash, kishilarning koʻngil dardini izhor etishga, Lev Tolstoy soʻzlari bilan aytganda, inson qalbi haqidagi haqiqatni ochishga qaratilgan taqdirdagina chinakam badiiy qimmatga ega boʻladi. Afsuski, 50-60-yillarda yozilgan qator asarlarda burch, diyonat, adolat, bir yoqlama, tor, sayoz yoritildi, birdan- bir maqsadga aylanib qoldi; bu borada andozalar paydo boʻla boshladi burchga sadoqat nuqul nomusi poymol etilgan ayolga yoki fojiga uchragan odamga mehr qoʻyishdan iborat qilib koʻrsatildi... Odil Yoqubovning roman, qissalari bu xildagi andozalardan yiroq.

Odil Yoqubov “Muqaddas”dan boshlab deyarli har bitta asarida biror muhim masalani koʻtarish bilan barobar, qalamga olingan mojarolarning

hayotiy ildizini, sabablarini ochishga intildi. Boshqacha aytganda yozuvchi yetuk realizmga xos analitik tasvir yo‘lidan boradi.

Analitik tasvirga moyillik adib ijodida yetuk realizmga xos yana bir fazilatning shakllanishiga olib keldi –uning qahramonlari murakkab tabiatli shaxslarga aylana boshladi. Shaxsga xilma- xil tomondan yondashish, hodisaning ham musbat, ham manfiy tomonlarini yodda tutishga intilish, odamni osongina “yaxshi” va “yomon” ga “ijobiy” yoki “salbiy” qahramonlarga chiqarib qo‘yishdan o‘zini tiyish, inson qalbini his etgan holda qalam tebratish –adib ijodining yo‘nalishini ko‘rsatib beradi.

O‘zbek prozasi balandda uchib borayotgan bir qush desak, Odil Yoqubov bilan Primqul qodirov uning ikki qanotiga o‘xshaydi, - deydi. Taniqli adabiyotshunos olim va “Sharq yulduzi” ogktfidshtstip bosh muharriri Pirmat Shermuhammedov – Bularsiz nomimiz ko‘rimsiz. Kambag‘al va g‘arib bo‘lib qolar edi.

Odil Yoqubov ijodida yana shunday o‘ziga hos bir janr bu nutq deb atalib, ijodkor hayotida muhim o‘rin tutadi. Adibning bu nutqi o‘sha paytda butun Rossiya imperiyasi bo‘ylab yoyilgan. O‘zbek adibining bunchalik g‘ayratiga kerak bo‘lsa, qahramonligiga qoyil qolingani edi.

Agar adibning barcha ijod mahsullarini, tarozining bir pallasiga qo‘yilsa bu nutq-tarozining ikkinchi pallasidan joy oladi. Lekin shunda ham ikkinchi palla og‘irlik qiladi. Adib ham buni bor ta’kidlab, “Agar barcha asarlarimni almashtirish imkoni bo‘lganda shu nutqqa almashtirmoqchi ekaligini aytib o‘tadilar”.

“Ba’zan katta-katta kitoblar qilolmagan ishni jimitgina bir nutq qilishi mumkinligiga, minbardan turib aytilgan so‘z yurakdan otilib chiqsa, boshqa odamlar qalbidan ham unitilmas iz qoldirishga imon keltirgan edim”, -deb yozadi. Taniqli ustoz buyuk inson Ozod Sharafiddinov o‘zining “Nutq yoxud hayotining yulduzli onlari” maqolasidir. Bu maqola Odil Yoqubovning

mashhur nutqiga bag'ishlangan bo'lib, ijodkorning qanchalik jasorat ko'rsatganining guvohi bo'lamiz.

Bu nutq ko'pchilik yurtdoshlarimiz tomonidan intizorlik bilan kutilayotgan edi. Har kimga ham butun millat nomidan gapirish ishonib topshirilavermaydi. Odil Yoqubovga shunday mas'uliyatli vazifa ishonib topshirilgan edi.

80-yillarning oxiri Rossiyaga qaram barcha mamlakatlardan deputatlari yig'ilgan, butun omma e'tiboridagi yig'in bo'lmoqda. Adib so'zga chiqishni 3 kun kutdi, nihoyat uzoq kutilgan fursat yetib keldi.

Odil nutqini boshidan boshlamadi. Sho'ro zamonida katta kichik gapiriladigan nutqining ichki qurilishi muayyan qolipga tushib qolgandi. Odatda nutqni muqaddimadan boshlash kerak edi, ya'ni avvalo partiyaga qulluq qilmoq, keyin erishilgan yutuqlarning olamshumulligini aytish va umuman, 3 – 4 og'ir bo'lsada xushomad gapalarni aytish, hamd-u sanolarga o'rin berish, shundan keyingina “ammo tarixiy yutuqlarimizga qaramay” degan gapdan keyingina asosiy masalaga mumkin edi. Odil gapni po'stkallasidan boshladim. U o'ziga ajratilgan vaqt g'oyatda tig'iz ekaninig aytdi-da, to'g'ridan-to'g'ri o'zbek dehqonining ahvoli haqida hikoya qila boshladi. Lekin bu gaplar odatdagi “oq oltin” yaratgan. “oltin qo'llar” to'g'risida yoxud o'zbek dehqonining bag'ri kengligi, saxovat peshaligi, mehnat sevarligi haqidagi allaqachon medaga tegib ketgan gaplar emas. Notiq qisqagina qilib, mamlakatning paxta mustaqilligini ta'minlashda o'zbek paxtakorlarining o'ta qashshoq va nochor ahvolda yashayotganini, qorni ovqatga, usti kiyimga yolchimayotganini ayta boshladi. Yillar moaynida kuniga 12 soatdan, ba'zan esa undan ham ko'proq, dam olish, tatil degan narsalarni bilmay mehnat qilgan dehqon bugun o'ta shafqatsiz tarzda eksplutatsiya qilinmoqda. “Bir kilo paxtaning kamida erkaklarning ikkita ko'ylagi” chiqadi. Bu ko'ylaklar 50 so'm (o'sha vaqtning narxida) turadi.

Dehqonga esa 1 kilo paxtasi uchun atagi 50 tiyin haq to‘lanadi! Dedi notiq: Bunaqa haq to‘lash mislsiz talonchilikdan o‘zga narsa emasligini zalda o‘tirganlar osongina tasavvur qilishi mumkin edi. Bu nutq davomida yana shunday isbot talab qilmaydigan faktlar keltirildiki, butun zal sukutda edi.

Bu gaplar zaldagilarning ko‘pchilik uchun mudhish bir yangilik bo‘layotgani sezilib turar edi. Chunki bizning matubotimizda, radio, televideniyada ko‘p yillardab beri faqat yolg‘on yashiq havoyi gaplar aytilar, o‘zbek dehqonining “qo‘shiq aytib quvonch bilan” mehnat qilishi madh etilar edi, lekin haqiqiy ahvol to‘g‘risida biror og‘ir ro‘yi-rost gap aytilmas edi. Minbardan esa brogan sari odamning badanini junjuktiradigan, yuraklarni zir titratadigan haqiqatlar yog‘ilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi 2 yil ichida 500 ga yaqin kishi o‘ziga o‘t qo‘yib nobud bo‘lgani aytilganda zaldagilar larzaga tushdi.

Bu mashaqqatlar yetmaganday, so‘nggi yillarda “o‘zbek ishi” degan narsa o‘ylab topilganini qattiq qaralib, notiq o‘z xalqining vijdoni pokligini, haloligini aytdi.

Xullas, sho‘rolar tuzumi yetmish yildan beri dehqonni quldan battar ezib kelganini endi esa uning ahvolidan mutlaqo xabar olmay, qirilib ketishga mahkum etgani g‘azab bilan gapiradi.

Nutqni eshitib turib, qorqqanidan miyamda bir fikr charx urdi – men bu nutq qurultoy arafasida besh olti kun mobaynida tayyorlangan bo‘lsa kerak deb o‘ylagan edim. Endi o‘ylasam, bunaqa teran mukammal nutqni besh olti kunda tayyorlash sira mumkin emas. Albatta, nutqni qog‘ozga tushirmoq uchun, ehtimol, 3 kun va hatto 2 kun ham kifoya qilmog‘I mumkin, ammo baribir, bunday nutqlar odatda butun umr davomida yoziladi. Odilning butun hayot yo‘li, 40 yillik ijodi, shu yillar mobaynida boshidan kechirganjamini murakkabliklar, chekilgan iztiroblari shu nutqqa olib kelishi muqarrar edi.

Bu nutqning ibtidolari, ehtimol, olis bolalik yillariga borib tarqalgai uchun o'g'liga muzqaymoq olib berolmay aarmonda ketgan otaning anduklari, "xalq dushmanining o'g'li"deb yakka maxov qilib qo'yganlarida murg'ak qalbida bir umrga cho'kib qolgan alamlari zuhur etgandir. Odil butun ijodi davomida yaratgan katta-kichik asarlarida, romalari va qissalarida adolatni kuyladi, zulmni nohaqlikni qoraladi butun hayotini qoplagan quyuq zulmatning loqal bir chekkasini yaratishga intildi. Shundoq ekan, qanday qilib o'sha asarlarda ifodalangan xalq dardlarini adib, minbarga olib chiqmasligi mumkin edi?

Adibning bu nutqqa javob bo'ladigan. Lavha olingan "Oqqushlar oppoq qushlar" romanidan bir lavha keltiramiz.

Ha, qanchalik og'ir, sermashaqqat, qanchalik izzattalab narsa ekan bu paxta. Uni ekib - tikib, mehr bilan parvarish qilib, hosil olguncha dehqon sho'rlik ming jo berib, ming jon oladi, desa mubolag'a bo'lmas?! Har yili kuz keldi deguncha butun el oyoqqa turadi. Yosh-u qari, ishchi-yu ziyoli, o'quvchi-yu talaba, hamma shu bitta tashvish, paxta tashvishi bilan band. Holbuki, ko'plar, juda ko'plar bu mehnatning beayov mashaqqati uyoqda tursin paxta, nimaligini tasavvur ham qilishmaydi!...

Bundan uch-to'rt yil avval Rasul Nuriddinov bir guruh san'atkor va adiblar qatori uzoq shimol tomonlarda adbiyot kunlarida ishtirok etgan edi. Kunlar savuq, qor tizzadan keladi. Shunda avtobusda bir rayondan ikkichi rayonga ketayotganlarida – bu rayonlarning oralig'I ham kam deganda 300-400 kilometr kelardi, o'sha taraflik taniqli bir adib bilan yonma-yon o'tirib qolishdi. Suhbat orasida tabiat qiyichiliklarini, shimolda ishlashning mushkulligi haqida gap ketdi-yu, Rasulning hamsuhbati:

Mazza-mazza, sizlarga mazzada!- dedi, qandaydir ichki bir hasad bilan. Qish-u yoz oftob, hammayoq bog'-rog', sharqirab oqqan ariqlar, daryolar. Bunday joylarda mehnat qilish o'zi bir rohatkon-ku.

Biz paxta ekamiz, - dedi Rasul qizishib... bu ekinni umringizda kormagansiz? Uning azobidan xabaringiz bormi?

Qanaqa azob? – dedi hamsuhbati ko‘zlari pirpirab.bizning iqlimimizda ishlash oldida-ya? Qo‘ysangizchi, birodar! Men paxta haqida yozilgan qanchadan-qancha asarlarni o‘qidim. Kinolarni ko‘rdim... hammayoq bog‘-rog‘. Atlas ko‘ylak kiygan go‘zal qizlar ko‘m-ko‘k bepayon dalalarda paxta terib yurishibdi. Ozgina terishadi-yu, bir-birlari bilan qulashib, bog‘larga chopishadi. Bog‘larda deng har biri choynakdey choynakdey noklar, olmalar g‘arq pishib yotibdi? Bir yoqda tillarang husayniylar, bir yoqda qovun – tarvuzlar siz aytgan haligi... “mehnatdan ezilib ketgan” qizlar ... dam noklarni uzishib, bir birlariga otib o‘ynashadi, dam qarasangiz ... poliz oralab, quchoqqa sig‘mas qovun tarvuzlarni so‘yib yeb aysh qilishadi... O! qani endi bu “qiyinchiliklar” bizda bo‘lsa...

Rasul paxtakor mehnatining ko‘rsatuvchi asarlar kamligini yaxshi bilar, bu haqda ko‘p kuyunib gapirar edi. Biroq bu mehnatni bo‘yab-bo‘yab, uning qiyinchiliklarini satpo‘shlab ko‘rsatuvchi asarlarning butun dahshatini o‘shanda, nihoyatda dilkash, samimiy, ammo paxtakor mehnatidan batamom bexabar taniqli adib bilan suhbatlashganda bilgandi.

Odil Yoqubov bu kuyunchak qahramoni o‘sha minbarga chiqqandek va yoki o‘sha jonkuyar millat adibning nutqi shu obraz fikrlarini ko‘chgandek tuyulaveradi. Adib har bir asarning Rasul Nurridinovga o‘xshagan jamiyatning har tamonlama faol shaxslarini obrazini keltiradiki, ular o‘z navbatida o‘sha jamiyatning yanada aniqroq qilib aytsan, mustamlaka xalqning ko‘ngil dardlari ifodachisi bo‘lib xizmat qiladi.

Odil Yoqubovning tutrilogiyasi deb atalayotgan “Diyonat”, “Oqqushlar, oppoq qushlar”, “Adolat manzili” romanlarida xalqning Normurod Shomurodov, Rasul Nurridinov va veteran Sherbo‘ta Norbo‘tayev kabi umrini partiya manfaatlariga bag‘ishlagan kishilarning yolg‘on va puch

gʻoyalariga qoʻyinlarini oʻldirib oʻtkazgan umrlari besamar ketgandan achchiq iztirob chekadilar bu bu qahramondan, avvalo, har bitta xalq vakilining dard adibni larzaga soladi. Shu munosabat bilan yuqoridagi asarlar dunyo yuzini koʻradi. Adib bunday betakror tarix namunalarini keltirsh, faktlari yigʻish uchun yetarli imkoniyatga ega edi.

Adib uzoq yillar “Literaturnaya gazeta”ning Oʻzbekistondagi muxtori boʻlib ishladi. Adibning oʻz ham bu gazetada faoliyat yuritgan kezlarni shunday eslaydi. “Bu davrda men gazetaning topshiriqlariga binoan respublikamizni boshdan oyoq aylanib chiqdim, oddiy paxtakor oʻlkamizning hayoti va tashvishlarini oʻz koʻzim bilan koʻrdim, yaxshilikning ham yomonlikning ham guvohi boʻldim, birda adalatni tiklashga baholi qudrat xizmat qildim”.

Yordam berishga ojizlik qilganda esa xalqning dardi, isteroblari adibning yuragiga indi, uning dardlariga iztiroblariga aylandi. Uning nutqida alanga tinglovchilar qalbini jumbushga qalqilshga majbur qiladigan harorat yillar davomida adibni oʻrtab kelgan alamlardan nishona emasmidi?

Odil bir qator hamkasblari ustozlari bilan boʻladigan gurunglarda, oʻzaro munozaralarda ham bu toʻgʻrida koʻp gapirar ammo bu gaplar tor xonlarda qolib ketar, keng maydonlarga, erkin havolarga chiqolmas va shuning uchun dardlar haqida har qancha gapirsang ham, bu unga qanoat tuygʻusini bermas, nochorlik va ojizlik vajidan qalblardagi alamlar yanada burqsir edi-yu kamaymasdi. Ne ajabki, Odilning nutqida oʻsha gurunglardan olgan quvvati ham zuhur etganday boʻldi. Qolaversa, oʻsha kuni ekranda koʻzimga gʻalati bir manzara koʻrindi – nazarimda, joʻshib - toʻlqinlanib gapirayotgan Odil minbarda yolgʻiz emasday koʻrindi. Uning orqasida zaldagilarning hech qaysisiga koʻrinmay Odil bolaligidan asarlarni sevib oʻqigan ulugʻ adib Abdulla Qodiriy va ulugʻ ustoz Abdulla Qahhor turganday edi. Odil ularning ham aytilmay qolgan dardlarini aytganday Abdulla Qodiriy

va Abdulla Qahhor ma'qullashib "Barakalla Odiljon" deya yelkasiga qoqib dalda berib turganday edi.

Shundan keyin men Odildagi buyuk jasoratni qayerdan kelganini anglaganday bo'ldim – u nutqining mazmunini tuzganida ham minbardan turib uni butun olam eshitadigan darajada hayqirib gapirganda o'zining qadrdon xalqiga, shu xlaqning farzandlariga bo'lgan buyuk ziyolilarning an'analariga tayangan ekan.¹

Adib bu nutqi bilan butun 130 yillik tarixda oyoqosti qilingan, ezilgan, toptalgan millat qaddini ko'targan uchinchi inson bo'ldi (1921-yilda Cho'lpon, 1923-yilda Akmal Ikromov) shunday jasorat ko'rsatgan edilar.

Shu kundan etiboran mustamlaka xalq dilida ozodlik tuyg'usiga nishona berilgandek bo'ldi. bunday buyuk jasorat esa haqiqiy millat parvar, o'z xalqi dardini o'ziniki qilib olgan ijodkor uchun butun hayoti davomidagi, asarlaridagi eng asosiy xulosalar bosh mantiq Kremeldagi mana shu majlislar zalida irod qilingan edi.

Ozod Sharafiddinov, Odil Yoqubovning bu nutqini adib butun boshli ijodidan ustin qo'yganda biroz taajjubga tushgan edi.

Axir, shuncha yaratilgan asarlar birgina shu nutq ostiga yashiringan bo'lsa, yuruk dardlari shu nutqqa to'kilgan bo'lsa, bunday holning yuz berishi tabiiy emasmi?

"Muqaddas"dan tortib "Adolat manzili" gacha yozilgan barcha asarlarida adolatsizlikning tub ildizi zamonasozlik ekani, zamonaning zamonbop zamondoshlari yo'l qo'ygan xato, kamchilik va mute'liklarga qarshi nafrat ekanini biz hech qachon imkor etalmoymizku? Shunday ekan biz adibning qaysi asarini tahlilga tortmaylik shu buyuk nutqqa borib taqalaveradi. Biz mazkur qilinayotgan ishimiz davomida bu nutqqa kengroq o'rin berdikki, zero, adibning asarlarining faoliyati va umrining kulminatsion

¹ Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Nutq yoxud adib hayotining yulduzli onlari. T: "Sharq", 2004, 418-419-b.

nuqtasi Ozod Sharafiddinov aytganlaridek rekord ko'rsatgichga bot-bot murojaat qilaveramiz. Xulosalarini bilib olaveramiz.

Odil Yoqubov XX asr o'zbek adabiyotning betakror san'atkorlaridan. Uning hikoya, roman, drama, qissalarida davrning murakkab muammolari o'zbek milliy karakterlari orqali aks ettirgan. "Ulug'bek xazinasini", "Diyonat", "Ko'hna dunyo", "Adolat manzili", "Bir koshona sirlari", "Qaydasan, Moriko?", "Osiy banda" singari asarlarida olam odam tabiat va jamiyat, boshqaruvchi va boshqariluvchi, adolat va riyo singari muammolar o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Badiiy asar kitobxon mulki ayni vaqtda u ijodkor ruhi, ijodkor ma'naviyati, ongi va munosabatini shakllantiradigan vosita. Har bir asar yozuvchi mahoratini charhlaydi, o'z zamoni kishi sifatida konsepsiyasini tarbiyalaydi. Konsepsiya – mustahkam e'tiqod samarasidir. E'tiqodli san'atkor zinhor soxtalikni rost, ko'z bo'yamachilikni haqiqat demaydi.¹

Insonparvalik Odil Yoqubov ijodida milliylik va umuminsoniylikning mushtarakligini ta'minlaydi.

XX asr oxiri o'zbek xalqi va O'zbekiston hayotida siyosiy – iqtisodiy, ma'naviy – huquqiy va ruhiy yangilanishlar, turli qarama – qarshiliklar – u ziddiyatlar, ezgulik va yovuzlik to'qnashuvi silsilasi davri sifatida tarix sahifalariga muxrlandi. "Adolat manzili" (1994) romanida mustamlakachilik kayfiyatidagi siyosiy – huquqiy kuchlarning tub usullari va nayranglarini fosh qilish orqali ularning asl qiyofalarni ochib tashlaydi.²

Odil Yoqubov 1988-1991-yillar davomida "Adolat manzili" romani ustida ishladi. Asar 1994-yili "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilindi. O'sha yili turk tiliga tarjima etilib, alohida kitob holida chiqdi. "Adolat manzili" qalamga olindi mavzu muammolari jihatidan "Diyonat", "Oqqushlar oppoq qushlar" romanining mantiqiy davomi, "Diyonat"dan boshlangan,

¹ Abdug'ofur Rasulov. Badiiylik bezavol yangilik. Roman poetikasi talqini. T; "Sharq", 2007, 174-175-b.

² Yoqubov I. Odil Yoqubov ijodida shaxs va jamiyat munosabatlari. O'zbek tili va adabiyot jurnali. 2010, 4-son.

“Oqqushlar oppoq qushlar” da davom ettirilgan ma’naviy - ijtimoiy jarayonlar, muammo, jumboqlar badiiy tahlilining o‘ziga badiiy intixosi. Bu uch roman garchi har biri mustaqil o‘zicha tugal asar sanalsa-da, trilogiya sifatida yaxlit holda xalqimiz tarixining muayyan bosqichini aniqrog‘i, dovrug‘li qizil imperiyaning yurtimizda nisbatan tincha, osoyishta nunlarda ichidan yemrilishi, ma’naviy inqiroziga, halokatga yuz tutish davri haqida keng tasavvur beradi.¹

Biz XX asr o‘zbek adabiyotini sarhisob qilganda, ko‘pincha nimalarni qo‘lga kiritishimizga emas, nimaarni yo‘qotganimizga e’tibor qaratmog‘imiz kerak.

To‘g‘ri adabiyot insonni, uning hayotini aks ettiradi. O‘zbek adabiyotining XX asrda bosib o‘tgan yo‘li haqida gapirmoq o‘zbek xalqining bir asrlik g‘oyat murakkab shodligidan qayg‘usi ko‘p bo‘lgan, iztirobli fojialarga to‘la hayoti haqida so‘z yuritmoqdir. Bu – kerak. Uning badiiyatiga, mahorati, saviyasi darajasiga baho bermoq o‘zbek ongi va turmushida fe’l –sajiyasida so‘nggi yuz yilda ro‘y bermagan o‘zgarishlar va hayot hodisalarini o‘zaro munosabatda naqadar haqqoniy va ishonchli, dardchan va ta’sirchan tasvir etilganini baholamoqda. Bu ham kerak. Lekin gap shundaki, yana hamma davr va dunyoqarashga kelib bog‘lanadi. Zamon zimistonga aylangan xalqning eng sara farzandlari “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinib, yoppasiga qatag‘on qilinayotgan bir paytda shodlik va baxtni kuylamoqning naqadar haqqoniyva vijdoniy jihatlariga borib taqaladi.² Xalqimiz yuz o‘ttiz yillik mustamlaka yo‘lini bosib o‘tdi. Bu davr buyuk yurtning, urtning tayanchilari bo‘lan ilg‘or shaxslarni ko‘kartimadi. Ularni ayovsiz ta’qib tazyiq ostiga oldi. Adabiyot qoliplarning chiqmay qoldi.

¹ Umarali Normatov. Yangi o‘zbek adabiyoti T.; “Universitet”, 2007, 100-b.

² Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. T.; “Fan va texnologiya”, 2008, 343-b.

Odil Yoqubov shu qoliplashgan adabiyotdan farqli o'laroq, elning sara farzandlari haqida, jamiyatdagi bor adolatsizliklarni ochib beruvchi obrazlar yaratdi.

Biz tahlilga tortgan "Adolat manzili" romanida ham yangi obrazlar, yangi chehralar tasviri beriladiki bu asarning o'ziga xosligini ta'min etib turadi.

Badiiy asar faqat "ulug'" ijtimoiy maqsadlar yo'lidagina yaratiladi, degan qarash bir yoqlamadir. Chunki adabiy asarni ijtimoiy qatlam yoki guruh emas, balki iste'dodli odam yaratadi. O'sha iste'dodli shaxsning ko'ngilidan o'tmagan ijtimoiy muammo qanchalik dolazarb bo'lmasin, o'z holicha badiiy so'zga evrilmaydi. Negaki iste'dodli kishida ijodiy kayfiyat ilhom ijtimoiy muammo tufayli emas, ko'ngil tebranishlari ruhiy muvozanatni beradigan hissiy turtki sababli paydo bo'ladi. Turtkining qayerdan paydo va qachon berilishi esa Yurakdan o'zga hech kimga ma'lum emas. Chunki ko'ngilning nimadan tebranishini, iste'dodli shaxsning ruhiy muvozanatini nima sababli, qachon buzilishi va qanday shakilda moddiylashishini oldindan bilib bo'lmaydi. Badiiy adabiyotgan ko'ngil ishi bo'lgani uchun ham unda uva muqaddas tuyg'ular bilan bir qatorda, utban hissiyotlar, nozik injiqliklar, kutilmagan bo'lg'amlar bo'lishi tabiiydir.¹

"Turtki", "Ta'sir" – adabiyotda doim bo'lgan, bundan keyin ham bo'ladi. F. Koni ismli advokat aytib bergan oddiy bir voqea Lev Tolstoyga "Tirilish" kabi genial asarning yozuvchiga "Turtki" bergani ko'pchilikka ma'lum: zamonasining boy-zodagonlaridan birining erkatoiy o'g'li yosh xizmatkor qizni yo'ldan urib armiyaga ketadi-yu, bir necha yildan so'ng sudda o'sha qizga ro'para keladi. Foxisha sifatida mahkamaga tortilgan bu juvon o'zi yo'ldan urgan qiz ekanini bilib qolib, unga yordam berishga jazm qiladi... Katyusha Maslova voqeasi va obrazi ana shu voqea ta'sirida

¹ Mustaqillik davri adabiyoti. T.; "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi", 2006, 225-b.

dunyoga keladi. “Tulki” – adib ruhiyatida uzoq vaqtlardan buyon to‘lqinlanib yosh tuyg‘ularini qo‘qisdan bo‘ron kabi qo‘zg‘atib, jumbushga keltiri yuboradiki, endi dildagilarni qog‘ozga to‘kib solmaslikdan o‘zga chora qolmaydi. Adabiyotshunos “Ilhom parisi” deb ataladigan hodisot, ehtimol shudir. Ammo men bunday to‘polonchi lahzalarga kamdan-kam duch kelaman. Uncha-buncha “turtki” o‘rnimdan qo‘zg‘atolmaydi deb javob beradi ustoz. O‘z do‘stlari, shogirdlari suhbatda.

Demak, adib, asarlariga qahramonlar tanlashda ko‘proq hayotga murojaat qiladi, ularni o‘z atrofidan ko‘rgan kechirganlaridan topadi. Bu ko‘pchilikka xos, ta’limiy holder, balki, Odil Yoqubov qahramonlari hayotga yaqinligi ortiqcha gajakdorliklardan holi real shaxs bo‘lgani uchun ham boshqa adiblar jodiga qaraganda o‘zgachalik kasb etgan.

Biror bir g‘oyani yoki mavzuni qalamga olinganmi shu mavzu atrofidagi obrazlar xuddi ko‘z o‘ngimizda har doim ko‘radigan, eshitadigan biladigan kishil;ardek taassurot qoldiradi.

Ijodkorning bir guruh do‘stlari bilan bo‘lgan suhbatida yana shunday fikr mulohazalar o‘rtaga tashlanadiki, biz ijodkorning ochilmagan qirralarini o‘zimiz uchun qayta kashf etamiz.

... Odil akaning kengligi, barchaga tengligi, talantlarni qadrlashi, umidli yoshlarni qanoti ostiga olishi, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib, ustozlik maqomini to‘kis ado etishi, birovni sotmasligi , vatan baxti millat manfaati yo‘lida har qanday shaxsiy huzur-halovatdan voz kecha olishi, hech qachon e’toqpdiga xiyonat qilmasligi ko‘plar qatorida meni ham havasimni keltirdi. Shunday yashashdan ulug‘ baxt bormi aslida ham ...

- So‘zlaringizdan ayon bo‘ladiki, adib, eng avvalo o‘zi ko‘rgan, bilgan odamlar o‘z boshidan kechirgan voqealar to‘g‘risida yozmas ekan, mukammal asar dunyoga kelmaydi. Mulohaza bildirdi.

Pirmat aka - Ammo tasuvvur-chi? Mana misol uchun ijodingizga nazar tashlangan o'quvchi Mirzo Ulug'bek, Beruniy, Ibn Sino, Ali Qushchi singari O'rta Osiyoning buyuk allomalari hayoti va fojiali taqdirlariga duch keladi. Bular yozuvchining beadoq tasavvuri mevalari emasmi?

Albatta tasavvur so'zdan boy. Oybek domla Navoiy hazrati bilan, Primqul Qodirov, Bobur Mirzo bilan bir dasturxon atrofida o'tirib choyguring qilgan emas, Pugachyobni Pushkin tanimas edi. Mirzo Ulug'bek yashagan davr bilan bog'liq voqealarni voqealarni o'rganayotib arxiv to'zonli orasida o'tirgan paytlarimda, bu ulug' alloma menga o'z otamday, o'z og'amday bo'lib qoldi, uning o'ylari mening o'ylaringa, dartlari mening dartlarimga aylanib ketdi. Barkamol asar yaratish uchun ijodkor ko'rgan kechirganlarini barobari bepoyon tasavvur dunyosiga ham ega bo'lmog'i zarurligini o'shanda yanayam teranroq his qildim. Ayni chog'da qunt va bilim, o'zi yashayotgan zaminga, shu zamindagi xalqqa xalqning urf odatlariga cheksiz mehr – muhabbat bo'lmog'i ; shu xalq xursand bo'lmog'i bo'lsa, shu zamin gullab – yashnasa astoydil yashnab barg urishi, yig'lasa, ko'ziga teepik turib yig'lagan xotinday rmas, chin yurakdan yig'lashi kerak yozuvchi ham ?

Qahramonlarni qalb torlarini chertish "... odam" yaratish uchun esa yuksak badiiy mahorat nozik did ham talab qilinadi.

Qalamkash mayday epizodik voqea, hodisalar negizida yotgan chuqur ijtimoiy omillar, fojiallar taqdirlagan va ulardan iztiroblarini teran idrok etishi hayotning o'zi ko'ndalang qo'ygan sinovlarni bilan anglay bilish, qahramonlari bilan birga nafas olishi, birga yashamog'i zarur . mekiajiloga o'zi yaratgan haykal tirikday ko'rinib qo'rqib ketgan. Balzak qahramoni o'lganda infarkt bo'lib qolgan, Kumushning o'limi tasfiri paytida Qodiriy yig'lagan, degan mish-mishlar bekorga emas.

- Shu o‘rinda biz ham qo‘shimcha qilib ketadigan bo‘lsak “Adolat manzili” romani kulminatsion nuqtasi tuyun Burgut vafoti va bu motam tog‘u toshlarni larzaga soladi.

Faryod chekanida ijodkorning o‘zini ham biroz bo‘lsada motam ruhi ko‘nglini chulg‘aganini, go‘yo o‘z yaqin insonidan ajralgandek his qilganini inkor eta olmaymiz. Har bir adib kitoblariga jonini, umrini, ko‘nglidagi bor suvinchi va g‘amlarni to‘kib soladi. Odil Yoqubov ham “adolat manzili ” romanida o‘zi yaqinini yo‘qotganday iztirob chekadi.

II bob. “Adolat manzili” romanida ijodkor yaratgan obrazlarning o‘ziga xosligi va badiiy talqini

Bilib ishlatilgan so‘z mo‘jizalar javhari-kuladi, kudiradi kurashga undaydi, yig‘laydi, yig‘latadi. So‘zlar gapiradi, savol beradi.

Odil Yoqubov yozuvchi mahorati, so‘z san’ati adabiy va falsafiy tahlil, ijodda rostgo‘ytlik va samimiyat o‘zbek tilining ko‘rkamligi, bulrroligi, pishiqligi va jozibadorligi, boy va ixchamligi, so‘z ko‘ngil mahoratining qulf va kaliti ekanligi, inson tafakkuridagi eng yuksak, eng chuqur va eng otashin tuyg‘ularni so‘zda ochiq- oydin ifodalash fazilatlari: so‘zlarning turfa ranglarga bo‘yab-bejamaslik, dabdabali va baland parvoz chaynalgan chuchuk, tushunish qiyin bo‘lgan yaltiroq so‘zlardan qochish so‘zni sevish, e‘zozlash hurmat qilish, avaylab ehtiyodlab qo‘llash; qalamkashdan har kalomida haqiqat gullari barq urib yashnab turishi, hayot nafasi, hayot sururi ufirib turishi haqida mulohazalar bildiradilar.

Ijodkor shu fikrlarni davom ettirib, bo‘sh quduq shudring bilan to‘lmaydi bo‘sh asar ham maqtalgani bilan yaxshi bo‘lib qolmaydi degan fikrlarni keltiradiki bu avvalo adib dunyoqarashini, yozayotgan asariga qanchalik talabchan ekanini ko‘rsatib beradi.

Bu bilan biz har bitta qahramonning vazifasini asardagi o‘rnini chuqur anglab boramiz.

Suyun Burgut barcha roman voqea-hodisalarini birlashtirib turuvchi qahramondir. Asar avvalida bu qahramonning oilasi, otasi, sinfdoshlari bilan bo‘lgan munosabatlar Marjonoy tilidan hikoya qilinadi. Burgutning bu laqabni olishi bejiz emas, u xuddi xalq og‘zaki ijodi qahramonlarini esga soladi. Asarning boshida Burgutning ertakmonant oti Duldul tasviri beriladi. Yoshlikdan ot minib, merganlikda, uloq, ko‘pkarilarda toblangan qahramonimiz ko‘z oldimizga keladi. Suyun Burgutga yana bir odat xos

bo'lib, u o'lan aytishni ham do'ndiradi. Burgut o'lan aytganda hammani og'ziga qaratadi. O'rtoqlari bilan samimiy, barcha sinfdosh qizlar unga zimdan oshiq bo'lib yurishadi. E'tibor bersak, bu xatti-harkatlarda o'zbek millatiga xos barcha urf-odatlar, an'analar, tarbiya maktabining o'rni aks etib turgani kundek ravshanlashadi.

Suyun Burgut chin vatanparvar inson, haqiqiy o'zbek, o'zi-o'ziga bek bo'lib yetishdi shu sabab hayot yo'lida bir zum bo'lmasin haqiqiy o'zbekka xos tantilik, mardlik, adolat bayrog'ini qo'ldan bermaydi. Burgut obrazi aks etgan o'rinlarga murojaat etish mobaynida bizning yuqoridagi fikrlarimiz o'z isbotini topadi. Burgut Marjonoyga ko'ngil qo'yadi, sekin asta bu muhabbat ikki yoshni o'z og'ushiga oladi. Suyun Burgut Marjonoyni olib qochadi. U ertaga nima bo'lishini kutadigan qahramonlardan emas, oldida bo'lishi mumkin g'ovlarni avvaldan o'ylaydi. Bu yigit o'z bo'lajak umr yo'ldoshini begonalar yonida bo'lishini xohlamaydi. Bu odat ham azal-azaldan ota-bobolarimizga xos o'zgacha bir fazilatdir. Bu ish Marjonoyni also ranjitmaydi. U ham Burgutni sof muhabbatini to'g'ri tushunadi va ota-onasidan uzr so'rab, ishongan kishi qo'lini tutib katta hayotga yo'l oladi.

Inson shaxs jumbog'i, bu jumboqni yechishga intilish inson hayoti mohiyatini tavitish va tahlil qilishga intilish romanning umuman badiiy adabiyotning bosh vazifasi: XX asr davomida shakli ifoda usullari juda ko'p o'zgarishlarga duch kelsada, inson uzoq vaqt o'zgarishsiz qolib keldi. Faqat asr so'ngiga kelibgina ijodkor insonni anglash bobida yakka hokim dunyoqarsh, mafkura taziqlaridan qutuldi. Shaxsni turli falsafiy estetik qarashlar nuqtai nazaridan badiiy talqin qilish imkoniga ega bo'ldi. Nazarimda so'nggi yillarda o'zbek romanchiligidagi o'sish – o'sish esa shubhasiz, mavjud ta'min etgan eng muhim omil shu bo'lsa ajab emas. Bir qarashda keyingi o'n yil mobaynida yaratilgan romanlarning aksaryati, istiqlol arafasidagi mustabid tuzum davridagi hayotini badiiy tahlil etishga

qaratilgan tematik, jihatda torlikday, bir xillikday taasurot qoldirishi mumkin, ehtimol. Biroq, menimcha bunda ham tabiiy, qonuniy holni ko'rganimiz to'g'riroq bo'ladi. Negaki kechagi kunimiz mana endi – endi ijodkorlarimiz uchun chinakam estetik obyektga aylanib bormoqda. Zero, ijodkor (jumladan, boshqalar ham) endigina u davr hayotidan rostmana uzilib, unga tugal bir bosqich sifatida chetdan qarash xolis va atroflicha chuqur mushohada qilish imkoniga bo'ldi. Davrdan uzoqlashganimiz barobari, asrdan – asraga uning badiiy talqini chuqurlashib borayotgani buning yorqin dalili bo'lgandek, hali bu mavzuning “yopilmagan”idan ham dalolatdir. Ikkinchi tamonidan, tematik jihatdan yaqin yuzaki qarganda bir-biriga o'xshash asarlarda talqinlar turfaligi ijodkor shaxsiy nuqtai-nazarining tobora bo'rtib borayotganini adabiyotimizning ertasidan xayrli foldir. Aytaylik, o'sha davr ijtimoiy hayotiy jarayonlarining, absurd voqelikning shaxs tabiati, ruhiyatga tasirini o'rgangan adiblar ijodida bir qarashda o'xshash, aslida bir-biridan jiddiy farqlanuvchi obrazlar (tiblar) yaratildi.¹

“Adolat manzili” romanining voqeasi oddiy: unda o'zbek ishi deb ataladigan ko'ngilsiz hodisaning ayanchli bir ko'rinishi haqida hikoya qilinadi. Yaqinidagina savxoz direktorligiga ko'tarilgan halol g'ayratli, shijoatkor, tadbirkor yigit chaquv orqali qamaladi, markazdan kelgan desanchilarni tahdidi bedodliklari tufayli qamoqxonada o'zini halok etadi. Asardagi butun gap so'zlar, voqealar mana shu fojiali ko'rgulikka muhtalo bo'lgan shaxs – bosh qahramon Suyun Burgut tevaragida aylanadi, yozuvchi bu mudhish hodisaga munosabatda bir talay persanajlarning ma'naviy qiyofasini gavdalantiradi, o'zining hayot, uning uning chigal jumboqli xususidagi o'y mushohadalarini ishora etadi: eng muhimi bosh xos ruhiy dunyosini ochadi.

¹ Normatov U. Ijod sehri. T.; “Sharq”, 2007, 352-b.

Suyun Burgut avvalo qahramonana xarakteri bilan ajralib turadi. 80-90 yillarda O‘zbekistonda totalitar siyosati oqibati o‘laroq hayot girdobiga tushib qolgan shaxslar obrazi ko‘proq yaratildi. Ularning aksariyati asosan jabrdiyda sifatida talqin etiladi. Suyun Burgut ham jabrdiyda shaxs shu bilan barobar u mardona dovyurak kurashchan siymo. Bu yigit boshiga tushgan ko‘rguliklar, adolatsizliklar tufayli iztiroblar olovida qovruladi, eziladi, ayni paytda so‘nggi nafasiga qadar balo ofatlar, yovuz kuchlar bilan beayov olishadi, mardona turib o‘zini halok etadi... Bu bilan yozuvchi ko‘p asrlik ijodiy tajribalarini yangi sharoitda davom ettiradi.

“Adolat manzili” yorqin o‘tmishdan olib yozilgan qator asarlardan farqli jihatida ham shunda.¹

Bu hol zamonaviy adabiyotimiz uchun hayot-mamot ahamiyatiga molik. 80-90-yillarda bo‘lgan adabiy bahslarda keyingi avlodlar ko‘z o‘ngida yorqin namoyon bo‘luvchi bebaho namunasidir.

Har bir asar o‘z davrining ijtimoiy voqea hodisalarini, kishilarning taqdirini, kechinmalarini ifodachisi bo‘ladi. Ushbu roman ham mustamlaka yurtimizning so‘nggi kunlari so‘nggi iztiroblari tarixi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Adolat manzili”dagi obrazlar ham xuddi o‘sha aytilayotgan davr kishilarini talqin etadi. Bugungi mustaqillik zamonida ko‘proq adabiyotimizning yangicha turlariga murojaat qilingan asarlar yaratilibdiki, uni anglash, tushunish, ijodkor g‘oyasini chuqur tahlil qilish biroz qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Absurd. Bu so‘zning lug‘aviy ma‘nosi “bemanilik” bo‘lib shu asosiga qurilgan insonlar obrazi, yoki bo‘lmasam voqea hodisalarga keng o‘rin berilgan adabiy janrdir. Bugungi kunimizda bu janrning ancha murakkab

¹ Normatov U. Yangi o‘zbek adabiyoti. T.; “Universitet”, 2007, 102-b.

namunalari yaratilganini e'tirof etganimiz holda, "Adolat manzili" romani shu janr dastlabki nishonalari deya ayta olamiz.

Asardagi biror gunohni bo'yniga olmagan shaxsni o'zlari to'qigan yolg'on tuhmat bilan qamashlari va qilmagan ishlarini bilib turib bo'yniga olmaguncha ruhiy qiynoqqa solishlari, hatto Suyun burgutning begunohligini bilib turib, uni yana yangi- yangibo'htonlarni yog'dirish uchun xotinidan pora so'rashi, buning be'manilikdan hech kam joyi yo'qdek tuyuladi.

Butun umrini, eng kuch-qudratga ega navqiron yigitlik chog'larini urushda kechirib hatto 80-yillarda ham goh maktabda, goh muassalarda yoshlarnimizni Rossiyaning sodiq askari bo'lib va'zlar aytganda ham, ko'ragiga shoda-shoda orden, medallarni taqib hayotdagi eng muhim vazifa haqiqiy vatanparvar, yurtsevar fidoiy, jonkuyar siymo bo'lib o'tganidan qanchalik mamnun bo'lsa, kuyovi aybini bilish, aybdor emasligini hech qanday gunohsiz qamalganini aytish Burgutni ozod qilish yo'lidagi dastlabki harakatidan keyingi holati bu obrazning umri qanchalik besamar kechgani, bemani hayot kechirgani absurddan o'zga narsa emas.

Odil Yoqubov "Adolat manzili"da bu qahramonlari orqali butun mustamlaka tuzumining bemani ekani hech qanday inson manfaatlariga rioya qilinmagani. Mustamlaka fuqarosining kim bo'lishidan qat'iy nazar: xoh u veteran bo'ladimi, xoh oddiy bir cho'pon buni qizig'i yo'q baribir shafqatsiz qullardek guvohi bo'lamiz. Asar qahramonlari shu juhatlarni yuzaga chiqarishda o'z his – tuyg'ulari, xatti-harakatlari bilan faollik va o'ziga xoslik kasb etadi.

Burgutga xos telbalarcha rashki, bitiruv kechasida to'qigan tush hikoyasi baxshilarga xos puxta mahorat sohibi shu bilan birga chuqur bilimdon ekanini bilib olamiz.

Asarning asosiy voqealari ya'ni syujeti va kompazitsiyasini ta'min etuvchi vositalardan birinchisi asar tili; ikkinchisi hayot oqimi va obrazlar;

uchinchisi asarda o'ziga xoslik kasb etuvchi qahramonlar nutqi, muallif hikoyasi va to'rtinchisi asar turi janri kabi to'rt jihatni har bir asarga har bir ijodkor o'rin berishi shart. Shu jihatdan "Adolat manzili" romani ham uchunchi jihati ya'ni o'ziga xosligini ta'min etuvchi vosita sifatida obrazlar tilidan aytilgan xalq og'zaki ijodiga xos vositalar: tush voqealari, o'lanlar, motam qo'shiqlari ushbu asarning o'ziga xosligini ta'min etgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu sabab ham bu asarni tahlil qilgan ko'plab adabiyotshunos va tanqidchi asr o'ziga xosligini xuddi shu xalq og'zaki ijodi yaqinligi deb baho beradi.

Badiiy asar syujeti hayot haqiqatiga asosida kitobxonni o'ziga tortadigan, jozibador qilib qurulgandagina muayyan ta'sir kuchiga egsa bo'ldi.¹

Syujet bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib. Biz yuqorida to'xtalgan Suyun Burgutning yoshlik bolalik tasvirlari ekspozitsiyani tashkil etadi. Ekspozitsiy Suyun Burgutning adolat parvar obraz bo'lib yetishining sabablari nimda ekaniga o'quvchini savollariga javob bo'ladi. Bu kitobxonda Burgutning va boshqa qahramonlarning asar davomidagi hatti-harakatlariga asos bo'luvchi debocha qismi hisoblanadi.

Asarning asosiy qismi – tuguni esa Suyun Burgutning xibsga olinish voqeasidan boshlanadi. Asar deyarli shu tugun va buy o'ldagi qahramonlarning turli psixologik va ijtimoiy holatlari bilan kechadi.

Shu o'rinda asosiy voqealar Burgutning savxoz raisi lavozimiga o'tirishi bilan boshlanadi. Ammo asarga tugun qilib olinadigan ziddiyat faqat sanoqli obrazlar emas, balki, barcha kitobxonni dardi ijtimoiy hayot muammosi bo'lishi kerak. Shu sababdan 80 yillar oxirida avj oldi " O'zbek ishi" deb qamalgan begunoh vatandoshlarimizdan achchiq hayotini aks

¹ Xudoyberdiyev E. "Adabiyotshunoslikka kirish", T., "Sharq", 2008, 71-b.

ettirish bo'lgan asar tugunini Suyun Burgutning qamoqqa olinishi deb talqin qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Burgutning savxoz direktorligiga ko'tarilishi kutilmas voqea bo'ldi, bunday deyilishini sababi nazarlarida dunyoni ushlab turgan Mansur Mesh va Najmiddinovlar ichki ziddiyatlarini bilsada xotini marjona qancha jon kuydirib bu yo'ldan qaytarishga harakat qilsada hatto "iloyo erimning nomzodi o'tmagay" deb xudoga tavallo qilsada avvalboshi Najmiddinov so'ngra yaxshi-yomonni shunday ham ajrata oladigan xalq Burgutni direktorlikka ko'taradi.

Burgut ishni to'g'ri boshlab ko'p savobli ishlarni amalgam oshirdi. Tez orada el-yurt og'ziga tushadi. Oila a'zolari, hamqishloq, hamyurtlari faxrlanib yurishadi. Burgutdagi bu ko'rinmayotgan qobiliyatni: tashkilotchilik, uddaburonlik muammolarni tez va oson hal qilish ko'p holarda haqiqiy boshliq, yurtdoshlari mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan fidoiy shaxs timsolining o'ziga xos na'munasi bo'la oladi. Adib har bitta boshliqning shunday xususiyatlarga ega bo'lishini xohlaydi.

Ko'p o'tmay dard ustiga chipqon deganlaridek Darvesh duduqning qo'rasiga o't ketadi. Sovxoz hisobidagi oltiming qo'y yonib kul bo'ladi. Burgutni avvalo yongan qo'ylar emas tasodif falokat tufayli (balki bu Mansur Mesh singari alamzada kimsalar ishidir) qamalishi mumkin cho'ponlar hayoti sarosimaga soladi bu o'rinda inson parvarlik birinchi o'ringa qo'yiladi. Qo'ylar esa bir jonivor uning qadri oldida inson o'zni yer bilan osmoncha farq qiladi. Burgut shu narsani aniq biladi, u hech qachon arzimagan oltiming bosh qo'y uchun umri mehnatda o'tib ham kosasi oqarmagan, bolalari to'yib yoki usti but bo'lmay ulg'ayayotgan bitta televizorni mo'jizadek hangu mang bo'lib tomosha qilayotgan bu insonlarni hech qachon tashlab qo'ymaydi, qo'ylar o'rnini to'ldirish uchun kerak bo'lsa, o'z qo'ylarini beradi, xalqni yig'ib ularni yordamga chaqiradi, xullas, hamqishloqlarini nochor ahvolga

tushishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bir jihatdan bu voqealar kishilarga oddiy ko‘ringan bo‘lishi mumkin ammo Burgutning bu irodasi, matonati, haqiqat uchun olib borgan harakati orqali adibimiz har bir o‘zbek boshlig‘ining shunday jonkuyar masuliyatli eng asosiysi adolatparvar bo‘lishini xohlaydi. O‘zi qo‘l ostidagi jamoaga mehr qo‘yishni har bitta yoshga alohida e‘tibor berishni, ularni o‘sishi, o‘qishi, ulg‘ayi va hayotda yaxshi natijalarga erishishiga o‘z hissasini faqatgina Suyun Burgutga xos fazilat emas, hamma jamiyatning faol a‘zosiman degan shaxslarga xos xususiyat bo‘lishini xohlaydi. Agar kishilar o‘z oilalariga qo‘ygan mehrni yurtdoshlariga ham ulasha olsa, o‘zgalar taqdirini o‘ziniki bilib yurtimiz, millatimiz rivojiga o‘z hissasini qo‘shsa degan maqsad va g‘oya yotadi.

Shunga qaramay hamma zamonlarda bo‘lgani singari yaxshiga kun yo‘q, yamonga o‘lim. Burgut bir kishi qilishi kerak bo‘lgan ishni juda qisqa muddatda amalgam oshirdi bu esa Mansur mesh – sobiq direktorning halovatini buzdi. Xalqimizda o‘tdan tushsa ham, egardan tushmaydi degan naql bor. Bu aynan Mansur mesh uchun topib aytilgan gapday jaranglaydi. Axir endi boshliqlik kezlarida soyasiga salom beradigan va og‘zidan chiqqani muhayyo qiladigan kimsalar ichidan chiqdi. Xalqning Burgutni qilayotgan ishlaridan mamnunligi Masur meshning paytavasiga qurt tushuradi. Garchi bu adovat o‘rnini Burgutga bo‘shatganda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, endi yana ham alamga oladi. O‘z maqsadlariga yumaloq xatlar yozib, tuxmat yog‘dirib erishadi.

Bu gunoh Burgut tergovning dastlabki kunlarida tushkunlikka tushadi. O‘zi yozgan o‘lan so‘zlari diqqatimizni tortadi. bu so‘zlar Burgut qalbida qo‘zg‘algan adalatsizliklarni isyondek taassurot qoldiradi.

Qirg‘in kelsa qo‘rg‘onim,

Yov bosganda qalqanim.

Yiqilganda suyanchim,

Qoqilganda tayanchim.

Agar kishilarning boshiga og‘ir kunlar tushsa, eng avvalo o‘z yaqinlari, tug‘ilib o‘sgan yurti, hamqishloqlariga suyanadi, tayanadi. Burgut ham o‘z yurtiga shunday mehr qo‘yadi. Adalatsizliklar eshik qoqayotganda shu mehnatsevar xalqi ko‘magiga ko‘z tutadi, undan madad kutadi.

Farzandlarining boshiga
Sinov tushdi, Marjontov
Yomonlarning yegani
Qazi o‘ldi, Marjontov!
Yaxshilarning boshiga
Qirov qo‘ndi, Marjontov,
Nechuk sukut saqlaysan?
Qaldirog‘ing qaldirab,
Haqni haqqa yo‘ymasan?
Yomonlarga ters boqib
Duoyi bat qilmaysan
Nechuk sukut saqlaysan,
Aylanayin Marjontov
O‘rgilayin, Marjontov...

Bu adolatsizliklar qanday tog‘larni larzaga solmayapti, axir, uning bag‘rida o‘sib ulg‘aygan farzandlarining birma- bir kulfatlarga muhtalo bo‘lmoqdaki, yana begunohlar jabr ko‘rib, gunohkorlar suvdan quruq chiqmoqdaki nechun, nimaaga... bu so‘zlar tilga ko‘chganda Burgut yuragidagi norozilik adolatsizlikka qarshi isyon olovining butun tanasiga o‘t oldirganday tuyuladi. Alanga kuchaygan sari, o‘lan ham avjiga chiqadi. Bu Marjontovga emas, butun xalqqa aytilgandek xalq tilidan aytiladi.

Bukun senga ne bo‘ldi?
Eling bukun quvg‘inda,

O'g'lonlaring surgunda,
Onalarning faryodi
Yetti arshi- a'loga
Nechuk senga yetmaydi
Yetgan bo'lsa nolası,
Nechuk sukut saqlaysan ?
Axir senga ne bo'ldi.
Aylanayin, Marjontov,
O'rgilayin Marjontov!

O'lan chog'ida qahramonlarimizning holatiga bir nazar tashlang-a "... O'lan oxiridagi mungli satrlarga, doim mehribon Marjontovning bugun, farzandlari boshiga qora bulut kelganda nechundir sukut saqlayogan Bobotog'ga murojaat qilganlarida Burgutning ovozi shunday tizginsiz bir dard bilan yangradiki, son- sanoqsiz qiz- kelinchaklar mo'ralab qarashdi, olma va o'riklarga osilgan bolakaylar chumchuq bo'p ketdi!"...¹

Inson g'amga botganda, ayniqsa, qahramonimiz Suyun Burgut singari bu tashvishlar yolg'on,uydurma gaplar bo'lganda ruhiy dunyosi qaqshatqich zarbaga uchraganda, yurak dengizi ko'pirib, toshganda, qirg'oqlarga sig'may quyun ko'targanda chekkan iztirobi o'langa ko'chgan er-u xotinning bu faryodi dilidan otilib chiqadiki, hech kim befarq eshitmaydigan, katta yosh bolalar ham chumchuq kabi shoh-shohga qo'nib, bir-birini pinjiga kirib, sukut saqlagan holda quloq tutadilar. Bu manzara qahramonlarning ma'naviyatli diyonatli obrazlarining yana bir o'ziga xosligidir .

Shunga qaramay, ular yashab turgan jamiyat oqni oq emas qora deb o'z bilganini, o'z maqsadini hech bir mubolag'asiz amalga oshirgan.

Burgut o'g'li Lochin bilan xuddi do'stlardek muomilada bo'ladi. Ular bir bo'lgandan ochiq oydin gaplashib, bahsga munozaraga kirisha oladilar.

¹ Yoqubov O . Adolat manzili. T.; "Sharq", 2005, 43-b.

Bu ikkovlarining suhbatlari jarayonida namoyon bo‘ladi. Ular ijtimoiy hayotda sodir bo‘lgan, bo‘layotgan nohaqliklarni haqiqiy bahosini beradilar. Lekin ota hukumatning hazillashib bo‘lmaydigan ayovsiz va adolatsiz ekanini aytib bunga bas keluvchi insonni toppish amri mahol ekanini qayta-qayta ta’kidlasa –da Lochin ham ko‘p kitob o‘qigan, vatani tarixini va tarixiga aylangan kechagi kunini yaxshi biladi. Undagi yoshlarcha qiziqqonlik, kitoblardan singgan adolat tantanasiga ishonch dilidagi o‘y-fikrlari otasi aytgan gap asl haqiqat ekanini tan olgisi kelmaydi. Kitoblardan o‘rgangan haqiqat ekaniga shubha qilmaydi.

Suyun Suvonqulov Sharanovskiy, Mirjalolov Mansur mesh (o‘zlaricha adolat va isbotlarsiz, hech qanday dalillarsiz) qamoqqa olinar ekan xatni Marjonoydan kechirim so‘raydi.

Kechir meni!- dedi o‘pkasi to‘lib-gunohkor Burgutingni kechir, xudoga topshirdim, seni... u tomog‘i g‘ip bo‘g‘ilib, o‘zini dahlizga urdi.¹

“Gunohkor” Suyun Burgut odamlar aytganidek pora bergani uchun emas, ayolini el-u yurt oldida gapga qolishi nohaq bo‘lsada, besh qo‘l baravar emas, baribir bu tuhmat chin bo‘lib el ichida yoyilishi hamma ularga ola qarashi mumkinligidan xijolat bo‘lib kechirim so‘raydi. Lochinni tarbiyasini yolg‘iz o‘ziga topshirib ketayotganidan, kelajakda ularni juda qiyin kunlar kutishidan iztirib chekib kechirim so‘raydi. Vafodor umr yo‘ldosh, u ayolini hech qachon kimlargadir muhtoj bo‘lishini xohlamaydi, lekin ayni vaziyatda ular bu ko‘rgulikka qaqnday sababdan qanday chidaydi. Shu sabablardan kechirim so‘raydi. Aslo aybini bo‘yniga olib emas xotinini, farzandini qiyinchilik girdobiga solib ketayotganidan qattiq o‘rtanib kechirim so‘raydi.

Burgut o‘zi oilasi a`zolaridan-da ko‘proq g‘amga qayg‘uga botadi, balki bunday deyishimiz noo‘rindir. Uqamoqda ligida butun o‘tmishiga nazar

¹ Yoqubov O. Adolat manzili. T.; “Sharq”, 2005, 53-b.

tashlaydi. Har qancha o‘ylamasin, o‘rtanmasin nega qamoqda yotibdi, qayerda xatoga yo‘l qo‘ydi anglab yetolmaydi.

Bu o‘sha davrda yigirma besh mingga yaqin “ O‘zbek ishi” deb qamalgan vatandoshlarimizning ko‘pini qiynagan savol bo‘lishi ular ham ruhiy qiyinchiliklarning omonsiz yomg‘irida sel bo‘lganini bugungi kun isbotlab turibdi.

Suyun Burgut obrazi yozuvchining, qolaversa butun o‘zbek nasrining jiddiy yutug‘i undagi isyonkor ruh, haq gapni har qayerda har kimga qo‘rqmasdan ayta olishi, qamoqda yotganda Sharanovskiyning savollariga javob berishida boshqa xonaga o‘tkazishganda ham hech qachon e‘tiqodini o‘zgartirmadi. Nohaqlik soyasiga salom bermadi Sharanovskiyning gaplari izzat nafsini qo‘zg‘atsa-da alamlarini ichiga yutdi. Aybini atrofdan emas o‘z hayot yo‘lidan izladi. U gunohi nimada uning nima uchun bu xo‘rliklarga chidashga majbur iztiroblar oloviga jizg‘anak bo‘lsa-da, u yashayotgan jamiyatda buni isbot qilib bo‘lmaydi. Ular to “aybdor”ni o‘z “aybi”ga iqror qilmaguncha turli- tuman sinovlarga tashlayverishadi.

Burgut uchun keyingi bosqich bir qator xudodan qaytgan Levon, Bo‘rsiq, Malikai ayyor qamalgan xonaga tashlaydilar. Ularni xatti-harakatlaridan seziladiki, u bekorga bu xonaga kelib qolgani yo‘q, bu Burgutga aybini bo‘yniga olishi uchun yana bir sinov, ammo yoshlikdan chiniqqan qahramonimizga bu kimsalarni yer tishlatish uncha qiyinchilik tug‘durmaydi. Qamoqxonadagi to‘polondan militsionerlar Burgutni tartibga chaqirib bu qilmishidan uyaltirmoqchi bo‘lishdi.O‘zlaricha tanbeh ham berishdi. Burgut bunga javoban shunday dedi:

Bir bo‘xton yetmovdi, ikkinchisini boshlamoqchimisiz? –bo‘g‘ilib dedi u va oyoq ostida yarqirab yotgan ikkita pichoqni ko‘rsatdi.

Avval so‘rab- surishtiring bu pichoqlar kimniki? Kim qamoqxonada yotgan kallakesarlar qo‘liga pichoq berib qo‘ydi? Maqsadlaring nima?

Bo‘xtonga uchragan halol insonlarni bukolmagandan keyin ularga mana shu iflos qimorbozlar yordamida tiz cho‘ktirishmi niyatlaring? Meni bu kissavurlar orasiga tashlashga kim ruxsat berdi sizlarga? Insof bormi sizlarda?

O‘g‘risi zo‘r kelsa, qozi muttaham bo‘lur dedi. –Og‘zingdan chiqqan gaplarga qara! Uyat senga, Burgut , uyat.¹

Ha yuqoridagilar qilayotgan qilmishlari bilib turubdi, bularning bari “Burgutning tan olishi kerak bo‘lgan qilmishi uchun” uyushtirilgan sinov edi. Uni buy o‘l bilan qo‘qitib bo‘lmasligini anglab yetishdi.

Shu o‘rinda militsionerni javobiga e‘tibor beramiz. O‘g‘ri zo‘r kelsa, bu de4gani Sharanovskiy boshliq tergovchilar buyrug‘ini bajarishga majburlar, lar ham adolat kim tomonida ekanini yaxshi biladilar, ammo na chora xohlasa xohlamasa ular buyrug‘ini bajarishadi. Aybli bo‘lmasada barcha nohaqliklar ular qo‘li bilan bajariladi. Shu sabbab ham muttaham kishilarga aylanishadi. Syyun Burgutni navbatda turgan sinov-oxirgisidan o‘tkazishdi. Yana tergov qilishdi endi ular o‘ylagan maqsad amalga oshay deb turibdi.O‘sha pora bergan Najmiddinov ayovsiz azoblardan so‘ng aybini bo‘yniga olgan. Burgutni pora berganini tan olgan edi. Axir, hayvonga bunchalar azob bermaydilar va ularni-da bunchalar xo‘rlamaydilar sobiq kotib bu qiynoqlarga dosh bera olmadi. Ikkita maxbus dialogiga diqqat qarataylik!

Sizga nima bo‘ldi Jamoliddin aka? Yigirma yildan beri viloyatda dag‘dag‘a solib yurgan odam ... qanday qilib bu ahvolga tushdingiz? Bu ... bu jallodlar bilan olishib, uydirma gaplarni, kurakda turmaydigan g‘irt bo‘xtonlarni o‘z yoqalariga yopishtirish o‘rniga... olmagan porani oldim deysiz? O‘zingiz yetmagandek meninh ham boshimga mag‘zava to‘kasiz. Sizga nima bo‘ldi, Jamoliddin aka? Erkakmisiz yo?.. Suyun Burgut so‘zini tugatmagan ham ediki, Najmiddinov kalovlanib o‘rnidan turdi-da mast

¹ Yoqubov O. Adolat manzili. T.; “Sharq, 2005, 140-b.

odamday gandraklab borib Burgutning oyoq ostiga gurs etib yiqildi-yu ko‘z yoshidan bo‘g‘ilib:

Kechir meni, ukajon ! –deb ingradi. Ko‘rib turibsanki ahvolimni !

Xudo hech kimning boshiga solmasin men ko‘rgan azoblarni.

Ha Mirjalolovlar ularning begunohligini yaxshi bilishadi. Ammo Burgut Najmiddinovdan farqli o‘laroq hech qachon, har qanday qiynoqlarga solinsada o‘z nomiga dog‘ tushurtirmaydi. Burgutni buy o‘llar bilan mag‘lub qilolmagandan so‘ng Sharanovskiy o‘ylagan so‘nggi chorani ishga soloshadi. U ham bo‘lsa, guvoh qilib xotini Marjonoyni chaqirishgan.

Hali bunchalik tubanlikka borishlari xayoliga ham kirib chiqmagan burgutning oldida so‘nggi chora qoladi bu chora bo‘lsa, Marjonoyga hech qanday qora yuqtirmasdan, ham o‘g‘li bir umr elu-yurt oldida izza bo‘lib yurishnini oldini oladigan kishi sifatida o‘z joniga qasd qilishga ahd qiladi. U oila a‘zolarini bu iflos joyga kelib, masqara bo‘lishini xohlamaydi. Razil, olchoqlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘lishga toqat qiloldi.

Sevimli yoriga xati hech qachon undan xafa bo‘lmasligini, Lochin uni kechirishini otasi tutayotgan yo‘l eng to‘g‘ri qaror ekanini yozadi, ularni qog‘ozga tushiradi, eng adolatli yo‘l o‘z joniga qasd qiladi.

“Burgutning o‘limi – mardona o‘lim. U o‘z insonlik sha’nini yuksaklikka ko‘tarib, sevikli jufti haloli nomusini saqlab qolib el-yurt ko‘nglida yorqin iz qoldirib, odamlar yuragiga olov yoqib, beshavqat g‘animlarni lol qoldirib bu foniyl dunyodan ketdi. Burgutning dafn marosimida marhum haqidagi odatdagi savolga “yaxshi odam edi, mard yigit edi. Suyun Burgut!” deya hayqiradi. Bu hayqiriqdan Marjontov ham yig‘ladi-yov, Marjontov ham silkindi-yov!...” – deb yozadi.¹

Muallif asrdagi yava ikkita shaxs – Veteran va Lochin obrazlari ustida to‘xtab o‘tilmasa roman va uning bosh pafosi haqidagi tasavvur kementik bo‘lib

¹ Yoqubov O. Adolat manzili. T.; “Sharq”, 2005, 170-b.

qoladi. Odil Yoqubovning avvalgi romanlarida sho‘ro odam bo‘la turib, inqilob ideallariga sho‘ro hokimiyatiga sodiq qolgan holda halolligi, rostgo‘yligi, adolatparvarligi, imon-e‘tiqodi, diyonati bilan davrga bot-bot duch kelganda ham ahddidan e‘tiqodidan qaytmagan. Ko‘pni ko‘rgan nuroniy qariyalar obrazi yaratilgan edi.

“Diyonat”dagi Normurod domla “Oqqushlar”dagi Shorahim Shovvoz shular jumlasidandir. “Adolat manzili”dagi Veteran ham o‘sha personajlarni eslatadi. Qizil mustabid tizimining eng o‘g‘ir gunohlaridan biri shuki, u yaxshi va yomonning, do‘st-u dushmanning farqiga bormadi. Hatto o‘ziga sadoqatli kishilarning qadriga ham yetmadi. Mana shu haqiqatlar qator reallistik adiblar qatori Odil Yoqubov romanlarida, jumladan Domla, Shovvoz obrazlari o‘z ifodasini topdi. Yangi romandagi Veteran timsolida esa bu fikr g‘oya nihoyasiga yetkazildi. Butun umri sovet tuzumi xizmati jang-u jadalda kechgan, katta lavozimlarda ishlagan. Qariya kuyovi Burgut boshiga tushganidan haqiqat adolat izlab, ma’sul rahbarlarga ro‘baro keladi. Bir vaqtlar ko‘plar soyasiga salom beradigan bu odamni endilikda dardini tinglaydigan, tushunadigan zot yo‘q. sovet idoralarida dardini, arzini tinglash u yoqda tursin, uni haqorat qiladilar.

Shunda qariyaning ko‘zi yarq etib ochiladi. “Yo‘q, sho‘ro hukumati yo‘q endi!.. Esiz bu hukumatga bag‘ishlangan umrim bu hukumatni deb jonini ham, qonini ham ayamagan kaminadek odamlar oyoq osti bo‘lsa-yu, umri bino uni kalamushday kemirib kelgan muttahamlarga qolsa ... Insof nimaligini unutgan iymon va diyonat nimaligini bilmagan shu battol haromxo‘rlar hal qilsa taqdirimizni. Esiz, umrim, esiz, umrim...”¹

Keyingi paytlarda Veteran telivizorga yaqinlashishdan markaziy gazetalarni qo‘liga olishdan yuragi bezzilaydi. Gazetani ochsa ham, tez uni qulog‘ini burasa ham yurakni qaqshatadigan bitta yu bitta gap: boshqa

¹ Normatov U. Yangi o‘zbek adabiyoti. T.; “Universitet”, 2007, 105-106- b.

hamma el, hamma yurt-halol, pok, u yoqlarda qullar bor, na ko'zbo'yamachilik, na o'g'rilik! Poraxo'r ham, savdogar ham, millioner ham –hammasi shu elda! Bu elga ishonmanglar sababi mug'ombirlik u o'zini gado qilib ko'rsatadi, o'lgan paxtakorning yirtiq chophonidan ham bir xalta oltin, bir to'rva pul chiqadi...¹

Veteran eng ko'p umri paxta dalasida o'tgan hech qanday aybsiz qamalgan. Shaxslar taqdirini o'ylab o'zini aybdor sezadi.

Veteran kuch- quvvati bor yoshlik kezlarida faqat bitta mustamlaka tuzum buyruqlarini bajaruvchisi bo'ldi. Urushda qatnashib qahramonliklar ko'rsatib, ko'kragini qator medallarga to'ldirdi, lekin shu yerga yeti kelguncha biron marta borayotgan yo'lining oxiri nima bilan tugashini o'ylab ham ko'rmadi. Hayoti mazmunini shunday xizmat qilishda deb bildi. Bugun esa sakson yillik umr sarob bilan tugaganini shuncha harakat sarob bo'lib chiqqani nafaqat ruhan, balik jisman ham to'xtatib holdan toydiradi. To'shakka mixlanib qoladi. Bu qahramon taqdiri umri besamar kechgan qariganda hech keragi bo'lmay qolgan ko'plab vatandoshlarimiz yuragini kemirgan dard bo'lib qoldi.

Lochin keyin Burgutning o'g'li, o'g'li bo'lganda ham ham Burgut o'zini bosadigan,shijoatli,matonatli voris.

Biz mazkur bitiruv malakaviy ishimizda lochin va uning do'stlari obraziga boshqacha tahlil bilan qaradik.Ko'pchilk asarlarda bosh qahramonlarning farzandlari ilg'or, epchil, yosh va qobiliyatli qilib tasvirlanadi:

“Diyonat” romanida Otaqo'zining o'g'li Normurod domla tarbiyalagan yosh avlod,”Oqqushlar” da Rasul Nuriddinovning farzandlari.Umuman qaysi davrni yoki roman qamrab olgan voqea –hodisa yoshlar obraziga o'rin

¹ Yoqubov O. Adolat manzili. T.; “Sharq”, 2005 , 21-b.

beriladi. Ammo “Adolat manzili” romanida yaratilgan yoshlar obrazini biz yangilik deb ayta olamiz.

Lochin va do‘stlari Odil Yoqubov xohlagan kelajak avlod, el-u yurtni mustamlaka asoratidan olib chiqishga harakat qiladigan birdan-bir umid har ularning har bir harakatlar, gap-u so‘zlarida erkinlik, demokratik ruh, so‘z erkinligi, fikr erkinligida namoyon bo‘ladi. Garchi bu gaplarni biz biroz oshirib, ko‘ptirib aytayotgandirmiz, garchi Lochin harakterida bo‘sh o‘rinlarni juda ko‘p toparmiz, Lekin bu yoshda, bu tajriba bilan, hayotni hali maktabni, o‘rta ma’lumotni endi nihoyasiga yetkazgan –qisqasi har tomonlama mukammal qilib, xohlsak, ham erisha olmaymiz, chunki, agar biz shunday qilsak bu obraz soxta ko‘rinib o‘quvchiga erish tuyulishi mumkin edi. Bunday kamchiliklar bo‘lmasligi uchun ushbu qahramonning real ta’siri ko‘proq berilgan. Asarga ko‘proq yondashsak, Yoshlar obrazi orqali Odil Yoqubovning qanday maqsad va go‘ya yo‘lida asarga olib kirganini anglab borasiz.

Otasi Lochinni yoshligidan o‘zi ulg‘aygan muhit bilan hamnafas qilib bordi. O‘zbek xalqi o‘zbek yigitlari azal-azaldan otga mehr quyishga otni chin do‘st yigit kishining suyanchi deb qaragan. Shu an‘analar sabav otasi o‘g‘lini haqiqiy o‘zbek yigiti qilib tarbiyalash uchun o‘gliga otga mehr uyg‘otadi. Uning chin o‘zbek bo‘lib yetishida uchun yangi Volgasiga alishib bo‘lsa-da, “Qaldirg‘och” nomli, nomi savxozda tanilgan, ot olib beradi. Lochin ham oatasidek otga mehr quyadi. Chavandozlik bahslarida yuqori o‘rinlarni oladi. Sevimli tulporini ye-u ko‘kka ishonmaydi. Otasi o‘gliga juda ko‘p fazilatlarni rivojlantirib, ma’na va jismonan yetuk shaxs qilib tarbiyalagan bo‘lsa, onasi kichikligidan adabiyotga, kitoblarga mehr ruhida o‘stiradi.

Lochinning drasxonasini kutubxonaga aylantirishdi Lochin ham kitobsevar inson bo‘lib yetishdi. Vatan tarixi, adabiyotini yaxshi o‘rgandi.

Asarda qalamga oliingan davr 80-yillar oxiri 90-yillar arafasida asar boshida milliy mustaqillik uchun kurash boshlangan vatandoshlarimizning qora nomlari oqiganib, barcha gazeta va jurnallarda, televideniya da bu haqda bot-bot jar solinar, mazkur qatag'on qurbonlarining asarlari chop etilib, ular kuchli adabiyotshunos, tanqidchilar tomonidan tahlil qilinadi, har bitta yuzaga chiqayotgan yangilik tiklanayotgan tarix ko'plab bahs-munozaralarga sababa bo'lar.

Asardagi yoshlar obrazlari: Lochin, Oltinoy, Kumushbib, Salimlar har bitta yangilikning faol tinglovchisi, munisabat bildiruvchilari ya'ni bugungi kun biln hamnafas vorislar bo'lib maydonga chiqishadi. Lochin nafaqat kechagi tarixni bugungi bo'layotgan nohaqlik va adolatsizliklar kuchaygan davr voqeligini ham yaxshi tushunadi. Uni idrok etib, o'z fikrini bildiradi. Mana sizga ota va o'g'ilning shu mavzudagi suhbat:

- O'glim dedi u allaqanday yolvorib. Mabodo yoshlik qilib, har-xil homhayollarga borib yurmanglar. Hukumat bilan hazillashib bo'lmaydi. Dunyoni oldim deb yurga ne-ne odamlarning nayini qirqib, yanchib tashlagan bu hukumat! O'qigansan, bilasan!

- Bilaman! - dedi. Lochin, qaysarlik bilan

- Quloq qilib otishgan! Dushmansan olib chopishgan! O'z elini, xotini bola-chaqasini himoya qilgan o'g'lonlarini u bo'lmaschi deb osishgan!

Suyun Burgut yuragi orqasiga tortib, bir qadam orqaga tisarildi:

- Sen ... bu gaplarni qaydan topding? Miyangga kim qydi bu be'mani bo'lar ekan? - Lochin asabiy kuldi. Birorta televizor, gazeta, jurnal qolmadiki boshimizga mag'zava tokmasin! Men Moskvani aytyapman! Siz tog'da yurib gazeta o'qimaysiz, televizor ko'rmaysiz-da, bilmaysiz!

Yorqiniy, bu bola nima deydi? O'zi topgan gapni buy o birovlar boshlarini aylantirib choxga itarmoqchimi bu yoshlarni?

Menga qara bolam! Senlar bunday gaplarga ko'p uchavermanglar !
Kim bilsin qaysi niyasda ...

Siz bilmaysiz! _ Yana o'jarlik qildi Lochin shunaqa tuhmat bo'l
yaptiki, suyaklarni zirqiraydigan odamning! Butun o'shek xalqi piraxo'r
emish o'g'ri emish! Bitfan elni oltin hum ustida o'tirga n ko'z oynakli ilonga
o'xshatibdi!... Bu sho'rpushona elni kim himoya qiladi? Haqiqat qiladi!
Shoirlar kelishsa, biz bugun shu to'g'risida bahslashamiz ota!

Lochin nima deyishini yaxshi biladi,yosh bo'lishiga qaramay oilada
maktabda yaxshi e'tibor tufayli a'lo baholarga o'qiydi.U o'z dunyoqarashiga
ega va u har qayerda o'z fikrini barilla ayta oladi.

Lochi jurnalistika yo'nalishida ta'lim olmoqchi: U bu yo'l orqali
dilidagi mehnatsevar va begunoh xalqini oqlovchi, gaplarni butun el-yurt
oldida jar solib aytmoqchi Yuragini o'rtayotgan nohaqliklarni bos-bosti qilish
uchun o'z hissasini qo'shmoqchi. Lochinning dostlari ham xuddi u singari
adolat yo'lini yaxshi bilishadi.Oltinoy, Kumushbib, Salim qiltiriq fikrlarini
eshitib ularnida Lochin singari kelajakka erkka umid bog'langan yoshlar
ekaniga amin bo'lamiz. Bu fikrlarni sovxozda tor doiralarda olib
borilayotgan shoir va jurnalistlar bilan suhbatda bizning fikrlarimizga yanada
aniqlik kiritadi. Bu suhbat shundog'am yurak hovuchlab kelgan shoir va
jurnalistika batlar qiyin ahvolga tushirib qo'yayotgan edi. Bugungi kun
yoshlarini tez fikrlaydi. Ular ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan voqea-
hodisalar ular kutmagan tarzda talqin va tahlil qilib tashlaydilar.

Aslida bu suhbat sport to'g'risida uyushtirilgan ,lekin baxtga qarshi
yurtni o'z olov -ichida, kishilar adolatsizliklar nomida yonayotganda bunday
mavzu kimning yuragiga siga'adi.

Katta yoshlarning ustoz, qo'rboshi deb atalayotgan Sohib Jamolov ham
qanchalar urinmasin shogirdlarini o'z maqsadidan qaytara olmadi. U

shogirdlarini haqligini yaxshi biladi. Bu suhbat uni ham qiynaydi. U ham dilidagi og‘riqlarini to‘kib soladi.

Lochin va uning do‘stlari ,bir-birlarini hech yrda yolg‘iz qoldirmaydilar. Otasi qamalganda, yelkama yelka turib yordamga otlanishadi. Hatto u o‘qishga bormasa, ular ham borishmaydi.

Shundan ijodkor adibimiz g‘oyasi esga tushadi. U kishi keyingi avlodlarni birdamlikka, ko‘zni kattaroq ochishga chorlashda shu obrazlar o‘ziga xosligini yatargan desak mubolag‘a yo‘l quymagan bo‘lamiz.

Lochin otasi aytgan vazifani onasini himoya qilishi, ko‘z quloq bo‘lishni bot-bot eslaydi. Har doim onaizoriga madaf berib keladi.

Otasining qamoqxonadagi to‘polon qilib, hamani cho‘chitib qo‘yganidan birolam zavq tuyadi:

Otasidan faxrlanadi.

Otam molodes,to‘polon qilayotgan bo‘lsa! Suyun Burgut burgutligini qilibdida! Otam o‘rnida bo‘lsam man ham shunday qilar edim!

Lochin va do‘stlari “Qaldirg‘och”ga ko‘pchilik ko‘z tikkanini yaxshi bilishadi.Shu sabab ham uni yashirmoqchi bo‘lishdi.Ammo ular bunga ulgurmadilar.Onasining pora berish uchun otini sotishi kerkligini aytganda qadrdon hamrohidan ayrilish bir zum yuragini o‘rtaydi,lekin bu berahm,adolatsiz kishilarga ishonib bo‘larmikan onasini o‘ylab ish qilishga undaydi.

Hecha qanncha vaqt o‘tmay Qakdirg‘och millitsionerlar tomonidan olib keti;ayotgan dostlari mashina ortidan chopayotganini ko‘rib o‘zini ular tomonga otadi. Ammo kuchlar teng kelmay garchi yordamga do‘stlari yetib kelishgan bo‘lmasin qurollangan militsionerlar yengib chiqdi.Bu voqeadagi bir- biriga talpinishi holatini bir ko‘z oldingizga keltiring-a?

Marjonoy yana ko‘z oldi qorong‘ilashib ,xotirasi xiralashadi.Keyin eshitsa,odamlar Lochinni militsionerlardan ajratib olishdi. Milietsioner

“Qalidirg‘och” ning bo‘yniga arqon solib katta yo‘ldan o‘tayotgan yuk mashinasida bog‘lab,sudrab ketishibdi. Shotakka olingan,ayovsiz qamchilangan “Qalidirg‘och “ huddi onasidan aytrilgan bo‘taloqday orqasiga,odamlarning qo‘lidan chiqishga urinib bo‘zlab yig‘layotgan Lochinga qaray-qaray,uzoqlashib ketganmish...

Marjonoy ikkinchi bor ko‘zini ochganda... yuzi qop-qora Lochin (“Qalidirg‘ochning qoni) yaralangan qushday pitirlab hamon odamlar bilan olishardi.

Lochin “Qalidirg‘och”iga juda ko‘pchilik ko‘z tikkanini sezib turar.Lekin bu tarzada xo‘rlik bilan undan ajratishini tasavvur qilmas edi. Bu yigit qaldirgo‘cha shunaqangi mehr quygan ediki,Lochin ham ot ham bir-birining ortidan bo‘rlab yig‘ladilar.Na chora hamma poraxo‘r hamma kissvur bu xalqni hech qanday gap-u so‘zsiz talaydilarni ,ze’ro ularni bu otadiy holdek ,oxir- insonlar o‘z mulklariga egalik qilolmaydigan, qullikkka asoslangan,buyruqbozlik.Ustun jamiyatni bundan ortiq talash xo‘rlash bo‘lmasa kerak.

Lochin sevimli otidan ayrildi,ko‘p o‘tmay otasining tobutini ko‘tarib kelishdi. Yosh yigit uchun har vaqtning o‘zida ikkinchi suyanchig‘ida ajralish har qanday shaxsni tushkunlikka, umidsizlik va irodasizlik girdobiga tortishi muqarrar.

Ko‘pchilik adabiyotshunoslarimiz Lochinning bu holatini yoshlik, g‘o‘rlik, tartibsizlik deb baholaydi. Lochin esa xuddi otasi kabi adolat yo‘lini, ildizni topmoqchi bo‘ladi. U tushunib yetdi ular yashagan jamiyatda adolat bu sarob, topib bo‘lmaydigan nodir topilma. Shu sababdan ham u dunyoni tark etmoqchi “Shayton dara” kabi omonsiz qurbonlar makoniga o‘zni otib, yolg‘on riyo, dunyoni tark etmoqchi Lekin u qanchalik tushkunlikka tushgan bo‘lsalar unning ortidan turgan onaizori, bo‘lajak qaylig‘i og‘ir kunid

yelkadosh bo'lgan do'stlari uni salimatligidan, yolg'iz yodgor qolganidan ko'ngillari tinch edi.

Lochin bir neha kun miyasida o'ylab hal qilgan ishga kirishadi. Uning ruhiyati gap so'zlaridan atrofdagilar bir nimasini sezgan bo'lishsa ajab emas. Haytovur, Ollohning rahmi kelib, ruhlar qo'llab Lochin ko'zini ochdi. Endi o'zni "Shayton dara" ataydigan onasi va Oltinoyning eski tiladi. Bu chaqiriq Lochinni aql chirog'ini yoqadi. Endi Lochin ma'no shu ostidan qolgan ayollarni (ularning nima gunohi bor!) suyanchiq bo'lish uning burchidir. Otaning oqlash uning zimmasidadir.

Shu burchni kech bo'lsada tushunib yetdi.

Lochin Burgut tarbiyasini olgan haqiqiy millat o'g'loni. Agar jamiyatimizda shunday mard, dovyurak bilm doirasi mantiqiy fikrlashi kuchli yoshlar ko'payar ekan, also vatan erkni qo'ldan bermaydi Bu asarni yechimi bo'lib Lochin to'g'ri va aniq qaror qildi. Adolat manzili romanida Marjonoy singari vafodor oilasini farzandiga mehr-muhabbati ko'pirib turuvchi ayolning taqdiri ham yoshlik kezlaridan beriladi. Garchi voqealar planida bu obraz ikkinchi planda qolsada, aslida, Burgut Lochinga g'ayrat-shijoatdan, ilm-u ma'rifatdan yo'lboshchi bo'lgan bo'lsa, Marjonoy mehr-muhabbat adolat va vafodorlikni o'rgatdi.

Marjonoy Suyun Burgutni deriktor bo'lishi bilan ko'ngliga g'ulg'ula tushadi tinch va osuda hayotlarini buzilishini istamaydi. Qarangki ko'nglidan o'tgan voqea sodir bo'ldi. Eri Burgut shu ish bo'yicha poraxo'rlikka ayblanib qamoqqa olindi.

Xulosa

Odil Yoqubov shunday jamiyatda dunyoga keldi, voyaga yetdi. Hayot kechirdiki, bevosita, har bitta ijod na'munasidan shu hayot tajribasi, ko'rgan kechirganlarini qog'ozga tushurdi.

U jamiyatning hamma qatlami kishilarning orzu-armonlarni tinglovchisi bo'ldi. (Jurnalistik faoliyati davomida) Eng sara asarlari shu tarzda bunyod bo'ldi. Odil Yoqubovning har bitta asarini birlashtirib turadigan bir g'oya o'xshashlik, umumiylik ko'zga tashlanadi bu ham bo'lsa jamiyatning qaysidir bo'g'inida bo'layotgan adolatsizliklar. Masalan "Muqaddas" ola o'qishga kirish, imtihonda qilgan soxtalik xususida bo'lsa "Diyonatda" da esa qarindosh urug' o'rtasida, turmush masalalari, oiliy dargohdagi adolatsizliklar to'g'risida, "Oq qushlar oppoq qushlar" mehnatkash xalqning ruhuy ijodkorlarning va soxta adolatsizliklari, xalq mulkidan xo'jasizlarcha foydalanish kabi xususiyalar ochib berilgan bo'lsa biz o'rganib chiqqan "Adolat manzili" romanida esa adolatsizlikning eng mudhish ko'rinishi bir millat, bir katta davlat ustidan qilgan adolatsizlikni qamrab olgani bilan o'ziga xoslik kasb etadi va bu asrlardan katta va keng g'oyasi bilan qolishmaydi.

Har bitta asrda xohlaymizmi, xohlamaymizmi, baribir ijobiy va salbiy obrazlarga to'xtalmay ilojimiz yo'q, hatto bugungi inson ruhiyati aks ettirilgan adabiyotda ham shxslarning xarakteridagi salbiy va ijobiy jihatlar batafsilroq yoritiladi, kengroq o'rin beriladi xolos.

Ushbu asarda ham insonlar ruhiyatiga keng o'rin berilgan. Bunga misol qilib Suyun Burgut, Veteran, Sharanovskiy kabi qahramonlarni olishimiz mumkin.

Asar sho'ro davrining oxiri endi mustaqillik erkinlari esayotgan bir pallada yozilgani uchun ham anchagina fikr erkinligi, g'oya butunligini ko'ramiz.

Asar xususiyat jihatidan xalq og'zaki na'munalariga qiyos qilinadi. Haqiqatdan bunday bo'lishi tabiiy 130 yillik mustamlaka davrida o'zbek milatiga xo'surf-odat, an'ana, xususiyatlarini ututganlar ham oz emas edi. Hatto ismlarida o'zbekonalik yo'qolgan yurt kishilarni qanchalik yo'qotishlar berganini tasavvur qilish mumkin emas. Shuning uchun ham asarning o'ziga xosligiga: ko'proq o'zbek qahramonlar, ulaning fe'-atvori, timsollar, tush voqealari, xat yozishmalar, o'lan aytishuvlar, ko'karilar, jonivorlar ularga bo'gan obrazlar mehri kabilar qlamga olinganki, bu mustaqillik debochasida yozilgan, ilk asrlardan biridir. Shuning uchun ham asrning chuqur mazmuni ha deganda ko'zga tashlanavermaydi.

Asardagi Burgutninng o'zbekka xos tantiligi, haqiqatga tik qarashi, birso'zligi hamda el kutgan boshliq ekani, Lochin va uning do'stlari ertangi kun kutgan avlod ekani, Vetaraning besamar ketgan umri achchiq haqiqat ekani bizga ayon bo'ladi.

Yuqorida aytilgan millatimizga xos sifatlar ichida tubanlik, manqurtlik, o'zim bo'laylik, qo'rqqoqlik, chaqimchilik, ko'rolmaslik, birovni go'riga choh qazish kabi jirkanch illatlar ham borligiga ko'z yumib keta olmaymiz. Asardagi millatdoshlarimiz ichidan chiqqan Mansur mesh, Mirjalolov kabi tuban shaxslarni ham also unutmashimiz kerak.

Endi bizning yurtimiz ozod, endi chetdan kelganlar bizga xo'jayinlik qilolmaydi, ustimizdan qaror chiqara olmaydi. Endi bizdan, har birimizdan avvalo, vijdonimizni so'ngra butun oila a'zolarimiz, hamqishloq, hamkasb, hamyurtlarimiz oldida pok bo'lish, millatimizni, O'zbekistonimizning, kelajak avlodlarimizni eng ilg'or, eng bilmdon yurt bo'lishiga hissa qo'shishimiz shart. Zero, adolat har birimizning yuragimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurqamiz. T.; Asarlar , 7-jild, "O'zbekiston", 1999, 280 b.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T.; "Ma'naviyat", 2008, 176 b.
3. Qosimov B. O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. T.; "Fan va texnologiya", 2008, 540 b.
4. Munavvarova M. Milliy g'oyaning ma'naviy ildizlari. T.; "Ma'naviyat", 2011, 110 b.
5. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Qaydasan, Moriko? T.; "Sharq", 2004, 620 b.
6. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Nutq yoxud adib hayotining yulduzli onlari. T: "Sharq", 2004, 620 b.
7. Abdug'ofur Rasulov. Badiiylik bezavol yangilik. Roman poetikasi talqini. T; "Sharq", 2007, 270 b.
8. Yoqubov I. Odil Yoqubov ijodida shaxs va jamiyat munosabatlari. O'zbek tili va adabiyot jurnali. 2010, 4-son.
9. Umarali Normatov. Yangi o'zbek adabiyoti T;; "Universitet", 2007, 190 b.
10. Mustaqillik davri adabiyoti. T;; "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi", 2006, 260 b.
11. Normatov U. Ijod sehri. T;; "Sharq", 2007, 400 b.
12. Normatov U. Yangi o'zbek adabiyoti. T;; "Universitet", 2007, 170 b.
13. Xudoyberdiyev E. "Adabiyotshunoslikka kirish", T;; "Sharq", 2008, 240 b.
14. Yoqubov O. Adolat manzili. T.; "Sharq", 2005, 178 b.
15. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. (Darslik). T.: "O'qituvchi" 2005 y, 300 b.
16. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T.: "O'qituvchi" 2004, 560 bet.
17. Mirvaliyeva S., SHokirov R. O'zbek adiblari. (o'quv qo'llanma). T.: "Fan", 2007, 250 bet.

18. Otayev R. El ardog`idagi yozuvchi. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2001 yil, 5-son.
19. Solijonov Y. Ijodiy izlanish samaralari. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2006 yil. 6-son
20. Yoqubov I. Odil yoqubov ijodida shaxs va jamiyat munosabatlari. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2010, 4-son
21. Yoqubov O. Oqqushlar oppoq qushlar. Tanlangan asarlar. IV jildlik. III-jild. “Sharq nashriyoti” 2002, 443 bet.
22. Yoqubov O. Hayot saboqlari va ijod mashaqqatlari. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1988 yil
23. Yoqubov O. Diyonat. “G`afur G`ulom” nomidagi nashriyot matbaa ijodiyot uyi. T.: 1978 yil, 450 bet.

Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchi
kurs talabasi Arabova Shohidaning
“Adolat manzili” romanida yozuvchining
obraz yaratish mahorati” mavzusida
yozgan bitiruv malakaviy ishiga ilmiy
rahbar

XULOSASI

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyati ko'z o'ngida taraqqiyot yo'lidan dadil qadam tashlayotganligi bugungi voqeilikning qadr –qimmatini belgilovchi mezondir. Bu mezon shuni ham taqozo etmoqdaki, ilm-fan sohasida yaratilayotgan tadqiqotlar mavzuining dolzarbligi va yangiligi bilan jahon adabiyotshunosligi andozalariga mos bo'lmoqda.

Talaba Arabova Shohida “Adolat manzili” romani haqida yaratilgan ilmiy tadqiqot ishini atroflicha o'rgaib ularga o'z mulohazalarini o'rganib ularga o'z mulohazalarimni bildirishga harakat qildim.

Birinchi bobda roman qahraminlari, shaxs va jamiyat munosabatlari deb nomlangan bo'lib asar qahramonlari o'zidan oldin yozilgan asarlar bilan taqqoslab, bir-biriga o'xshashlik va farqli tomonlarini yoritishga uringan.

Bitiruv malakaviy ish Odil Yoqubovni “Adolat manzili” asaridagi obrazlar davr va u vaqtdagi ijtimoiy - siyosiy, adabiy- badiiy jarayonlar haqida batafsilroq to'xtalib o'tilgan.

Yozuvchi qalamga olgan davr siyosatining kamchiliklarini mustamlaka tizim oqibatlarini millatga xos ijobiy va salbiy jihatlariga to'xtalib o'tilgan.

Ishning ikkinchi bobi “Adolat manzili” romanida yozuvchining obraz yaratish mahorati va badiiy talqini deb nomlagan. Bu bobda talaba Arabova Shohida asardagi Suyun Burgut timsolidagi xalq og'zaki ijodi qahramonlari

obraziga o'xshashlik jihatlarni va bu kabi bosh qahramonning o'ziga xos jihatlarni ochib berishga va ijodkorning bu obrazni yoritishda erishgan o'ziga xosliklarni ko'rsatishga harakat qilagan.

Bitiruv malakaviy ish asarda yoritilgan absurd qahramon va bu adabiy turning o'ziga xosligi, keyingi yillardagi rivoji, ushbu o'rganilayotgan asarda absurdning ilk namunalari uchrashi haqida to'xtalib Veteran obrazining g'oyaviy tugalligi haqida unumliroq ma'lumot berishga harakat qilingan. Ishning xulosa qismida mavzu yuzasidan tadqiqotchining barcha nazariy mulohazalarini umumlashtirib yakunlagan. Talaba asar mavzusini yoritishda o'z oldiga qo'ygan ilmiy maqsadlarni amalgam oshirishga harakat qilgan. Asarni o'rganishda ko'plab adabiyotlardan foydalangan. Talabaning mulohazalari, fikrlari yaxshi bayon qilingan.

Ishning tayyorlanishi ham talab darajasida shularni hisobga olib malakaviy bitiruv ishini ijobiy bahoga munosib deb hisoblayman.

Ilmiy rahbar:

f.f.d. A.O. Xolmurodov

Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek filologiyasi fakulteti bitiruvchi
kurs talabasi Arabova Shohidaning
“Adolat manzili” romanida yozuvchining
obraz yaratish mahorati” mavzusida
yozgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Jamiyat rivojlanib borayotgan sari hamma sohada xususan adabiyotshunoslik sohasida ham katta yangiliklar sodir bo‘lmoqda.

Bitiruvchi Arabova Shohidaning mazkur malakaviy ishi mavzusida bosh maqsad qilib ko‘tarilgan insof, adolat, diyonat, tushunchalari va ularning mohiyati masalasi shu jihatdan ham dolzarbdir.

Bitiruvchi maqsadni to‘g‘ri qo‘yib avvalo asar yaratilagan davr holatini yaxshi yoritib bergan. Asarni tahlil qilish jaryonida ilmiy bilimlarni ham berib, asoslab, adabiy qoidalarni asar davomida qo‘llab ham ilmiy, ham o‘z fikrlarini hamohanglikda ochib berishga harakat qilgan.

Bitiruv malakaviy ishining II bobida Lochin, Oltinoy, Kumushbibi, Salim obrazining o‘ziga xosligi ijodkorning bu qahramonlarni mustaqillik ostonasida turgan yurtimizning g‘oyaviy, mafkuraviy , tarixiy va ilmiy bilimlarni yeyuk munosib voris ekaniga bu qahramonlar adabiyotimizdagi o‘ziga xos yangilik ekanini asoslashga va umuminsoniy g‘ozal fazilatlarni ochib berishga harakat qilgan.

Bitiruvchi Arabova Shohida yozuvchi ijodidagi o‘ziga xoslik obrazlar yangiligi xususida mulohaza yuritgan va manbalardan foydalanishga va ularni qayd etishga harakat qilgan.

Bitiruv ishi hajmi va tayyorlanishi va boshqa jihatlari bilan Davlat Attestatsiyasi talablariga javob beradi. Shularni hisobga olib bitiruv malakaviy ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

f.f.n. O.Qayumov